

**O‘BEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISH FAKULTETI

«Himoyaga ruxsat etilsin»

_____ f.f.d. B.Abdushukurov
o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish
fakulteti dekani

«___» _____ 2018-yil

5111600 – O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish IV kurs 405-guruh talabasi
Bekmurodov Tog‘aymurod Panjiyevichning

**«ISTIQLOL DAVRI SHE‘RIYATINI O‘QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN
FOYDALANISH» (9-SINF ADABIYOT DARSLIGI MISOLIDA)**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

_____ f.f.n M.Abdullayeva
«Axborot va zamonaviy pedagogik
texnologiyalar» kafedrası katta
o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

_____ f.f.d U.Hamdam
ToshDO‘TAU dotsenti,
_____ N.To‘xtayeva
Sirojiddinov nomidagi akademik
litseyi o‘qituvchisi

«Himoyaga tavsiya etilsin»

_____ f.f.d. S. Muhammedova
«Axborot va zamonaviy pedagogik
texnologiyalar» kafedrası mudiri

“ _____ ” “ _____ ” 2018 – yil

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. ISTIQLOL DAVRI SHE’RIYATINING MAVZUSI VA G’OYASI	8
1.1 Istiqlol she’riyatining o‘ziga xosliklari.....	8
1.2 Mustaqillik davri she’riyatida Vatan mavzusi.....	19
II BOB. ISTIQLOL DAVRI SHE’RIYATINI O‘QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH	29
2.1. A.Oripov she’riyatini o‘qitishda audio va video materiallardan foydalanishning maqsadi, bugungi kundagi ahamiyati va foydali xususiyatlari	29
2.2. Rauf Parfi she’rlari tahlilida innovatsion yondashuv.....	35
2.3 Zebo Mirzo she’riyatini o‘rganishda muommali texnologiyalarning ahamiyati.....	44
III BOB. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI	54
3.1. Tajriba-sinov natijalari.....	54
3.2. Ochiq dars ishlanmasi	49
XULOSA	64
Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar	68
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	70

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida ta’lim-tarbiya jarayoni tubdan o‘zgardi. Bu o‘z navbatida ta’lim sohasida olib borilayotgan davlat siyosatining huquqiy-tarbiyaviy asoslarini yaratishdan boshlandi. Ta’lim-tarbiyani milliy istiqlol g‘oyalari asosida yuksak darajaga ko‘tarish davatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishi va bugungi globallashuv jarayonlarining ijtimoiy talabiga aylandi desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi»da ham jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo‘lida ularning ijtimoiy faolligini yuksaltirish, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ta’lim muassasalarining samarali faoliyatini tashkil etish, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish bilan birgalikda amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish hamda uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirishda zamonaviy o‘zbek she’riyatining ma’naviy miqyosi, badiiy salohiyati kundan kunga oshib borayotganligi hech kimga sir emas. Shu ma’noda hozirgi o‘zbek adabiyotida lirika adabiy turining o‘rni alohida tahsinga sazovor. Biroq ana shu boy va rang-barang xazinaning ijtimoiy-psixologik asoslarini, hozirgi ahvoli va istiqbolini yoritib beradigan ilmiy-nazariy tadqiqotlar nisbatan kam yuzaga kelmoqda. Hozirgi milliy poetika zamondoshimiz qalbida kechayotgan his-tuyg‘ularni aks ettirish barobarida mamlakatimizning har bir a’zosida mustaqillikka shukronalik, porloq kelajagiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning «Odamlarda o‘zligini anglash, milliy g‘urur, oriyat, o‘tmishdan faxrlanish, porloq kelajakni o‘z qo‘limizga olganimizdan g‘ururlanish kabi tuyg‘ular kamol topayapti, ularning

bugungi va ertangi kuniga ishonchi ortib bormoqda»¹, deya e'tirof etganligining asosiy mohiyati hozirgi she'riyatimizga ham taalluqlidir desak aslo yanglishmagan bo'lamiz. Biroq bu nodir manbani ilmiy tahlil etish, uning mohiyatini she'rxonga yetkazishda ijtimoiy fanlarning, xususan, adabiy-nazariy tadqiqotlarning roli benihoya kattadir. Masalaning shu tomoniga e'tibor qaratgan birinchi Prezidentimizning: «Mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, milliy davlatchilikni shakllantirish, huquqiy demokratik davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini qaror toptirishdek ulug' orzu-umidlar bilan yashar ekanmiz, ijtimoiy fanlar sohasidagi ilmiy izlanishlar va ularning natijalariga alohida e'tibor bermaslik mumkin emas»², deb ta'kidlagan. Shuning uchun ham mustaqillik davri she'riyatining milliy ma'naviyatni yuksaltirishdagi hamda mustaqillik bergan ne'matlarni anglab yetishdagi o'rni beqiyos ekanligini alohida ta'kidlash lozimdir.

Istiqlol davri she'riyatini umumta'lim maktablarida o'qitish – yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashga asos bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insoniylik fazilatlarini shakllantiradi. Bunday jihatlarni umumta'lim maktablari, xususan 9-sinf o'quvchilari ongiga adabiyot darsligi misolida chuqur singdirish, ta'kidlab o'tilgan ulkan mazmunga ega bo'lgan g'oyalarni oson va o'quvchilar dunyoqarashiga moslashtirgan holda yetkazib berishda innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish asosida o'qitish katta ahamiyatga egadir. Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi aynan shundadir.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Istiqloldan keyingi o'zbek she'riyati sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, nisbatan ijodiy erkinlik darajasi, milliy qadriyatlarimizning qayta tiklanishi, mafkuraviy yakka hokimlik asoratlarini bir qadar cheklab qo'ydi, badiiy izlanishlarning falsafiy-intellektual saviyasini oshirdi hamda shakliy-uslubiy, mazmuniy miqyoslarini yanada boyitdi. Ajdodlarimizning boy ilmiy va adabiy merosi ham ma'naviy-axloqiy, ham ma'rifiy tomondan o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Jumladan, A.Oripov she'riyatida

¹ Karimov I. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. –T.: O'zbekiston, 1996. 260-bet.

² Karimov I. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. –T.: O'zbekiston, 1996. 189-bet.

diniy g'oyalarning xalqona ohang kasb etishi, J.Kamol, S.Sayid, E.Shukur, F.Afro'z izlanishlarida tasavvufiy aqidalarga moyillikning ortishi M.Abdulhakim ijodida bedilona ifodaning shakllanishi Faxriyor talqinlarida rumiyona falsafiylikning kuchayib borayotganligi ko'zga tashlanadi. Xullas, zamonaviy o'zbek she'riyati yangi xususiyatlariga ega bo'ldi va bu xususiyatlar qator tadqiqotlarning yaratilishiga sabab bo'ldi. Istiqlol adabiyoti bugungi adabiyotshunoslik adabiy tanqidchiligining eng dolzarb, eng ommabop mavzusi bo'lganligi sababli o'zbek adabiyotshunosligida mustaqillik she'riyatining bir qator o'ziga xos tomonlarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganuvchi fundamental tadqiqotlar yaratilgan. Adabiy tanqidning nazariy masalalariga bag'ishlangan monografiya va tadqiqotlar, o'quv-qo'llanmalari, realistik adabiyot va adabiy jarayon, tanqidchilikning hayotga ta'siri masalalarini o'rganuvchi to'plam va maqolalarda ushbu mavzuda atroflicha fikr-mulohazalar bildirildi. Jumladan, P.Qodirov, O.Sharafiddinov, I.Haqqul, M.Qo'shjonov, U.Normatov, B.Nazarov, B.Imomov, D.Quronov, U.Hamdamiyov, H.Karimov kabi adabiyotshunoslarning yangi o'zbek she'riyati masalalariga bag'ishlangan qator maqolalari, darslik va qo'llanmalari e'lon qilindi.

Biroq, Istiqlol davri she'riyatini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish alohida tadqiqot obyekti bo'lmagan. Biz BMIda istiqloq davri she'riyatini interaktiv metodlar vositasida o'rganishni maqsad qildik.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: Umumta'lim maktablari 9-sinf o'quvchilari uchun yaratilgan adabiyot darsligidagi istiqloq davri she'riyatini o'qitish jarayonida innovatsion yondashuvga amal qilgan holda turli xil interaktiv metodlardan foydalanish asosida istiqloq davri she'riyatining o'ziga xos bo'lgan inson ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan, insonparvarlikka undaydigan, mustaqillikning naqadar buyuk ne'mat ekanligini his qilishga, vatanparvarlik tuyg'usini chuqur anglab yetishga chaqiradigan jihatlarini ochib berish va interaktiv metodlar asosida o'quvchilar ongiga singdirish bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- Istiqlol davri she'riyatining o'ziga xosliklarini ochib berish;
- Mustaqillik davri she'riyatida Vatan mavzusini o'rganish;
- Abdulla Oripov she'riyati mazmun-mohiyatini o'quvchilar ongiga singdirishda audio va video materiallardan foydalanishni tadqiq qilish;
- Rauf Parfi she'rlarini tahlil qilish jarayonida innovatsion yondashuv loyihasini ishlab chiqish;
- Zebo Mirzo she'riyatini o'rganishda muammoli texnologiyalarning ahamiyatini tahlil qilish;
- Tajriba-sinov va uning natijalari;
- Mavzuga oid dars ishlanmasini tayyorlash.

Bitiruv malakaviy ishining obekti va predmeti. Tadqiqotning asosiy obekti umumta'lim maktablarining 9-sinf adabiyot darsligi. Bitiruv malakaviy ishida A.Oripov, R.Parfi, Muhammad Yusuf, Erkin Vohidov va Zebo Mirzo kabi ijodkorlarning she'rlari tahlil qilindi. Ba'zi o'rinlarda istiqlogacha bo'lgan va istiqloq davri o'zbek she'riyati namunalari bilan innovatsion texnologiyalar hamda interaktiv metodlar asosida qiyoslandi.

Mavzuning nazariy va metodologik asoslari. Tadqiqotning nazariy asosini 9-sinf adabiyot darsligidagi mavzuga oid ma'lumotlar, A.Oripov, R.Parfi va Zebo Mirzoning ijodiy merosi va ushbu ijodkorlarning ijod namunalari ustida olib borilgan ilmiy-nazariy va metodologik tadqiqotlar tashkil qiladi.

Mavzuning ilmiy yangiligi. Mavzuning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- Istiqlol davri she'riyatining o'ziga xosliklari ochib beriladi;
- Mustaqillik davri she'riyatida Vatan mavzusi tahliliy asosda ochib beriladi;
- Abdulla Oripov she'riyatini mazmun-mohiyatini o'quvchilar ongiga singdirishda audio va video materiallardan foydalanishning ahamiyati yoritiladi;
- Rauf Parfi she'rlarini tahlil qilish jarayonida innovatsion yondashuvning ahamiyati o'rganildi;

- Zebo Mirzo she'riyatini o'rganishda muammoli texnologiyalarning ahamiyati tahlil qilib berildi;

- Mavzuga oid dars ishlanma loyihasi tayyorlandi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Ishning asosiy natijalari va muhim xulosalaridan adabiyotshunoslikda, shuningdek, o'zbek she'riyatini o'qitishda foydalanish mumkin. Shuningdek, oliy o'quv yurtlarida o'zbek adabiyoti bo'yicha maxsus kurslar va seminar mashg'ulotlarini tashkil etishda ham manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv-malakaviy ishi kirish, uchta bob, yettita fasl, tayanch tushuncha hamda atamalar lug'ati, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. ISTIQLOL DAVRI SHE'RIYATINING MAVZUSI VA G'OYASI

1.1. Istiqlol she'riyatining o'ziga xosliklari

Bugungi kunda o'zbek she'riyatidagi badiiy yangilanishlar shakliy-mundarijaviy izlanishlar mustaqillikning qo'lga kiritilishi tufayli milliy tafakkurda paydo bo'lgan o'zgarishlar bilan bog'liq. Milliy badiiy tafakkurning yangilanishi tufayli o'zbek adabiyotida badiiy asar tili, adabiy matnning qurilishi, ritm, vazn, qofiya, she'riy san'atlarni qo'llash tamomila boshqa ma'no kasb etadi. Bu davrda ruh falsafasini anglatishga bo'lgan intilish, ziddiyat qarama-qarshiliklar mohiyatiga chuqurroq kirib borishga harakat, ranglar uyg'unligi va tasvirining quyuq bo'lishiga e'tibor kuchaydi. Shoirlar tamonidan olam hodisalariga, hayot manzaralariga turli jihatdan yondashish - «bir predmetga bir talay nigoh tashlash» o'zlashtirildi¹. O'zbek she'riyatidagi ijodkorlarning o'z ichki dunyosi sirlarini inkishof etishga kuchli urinishlar ko'zga tashlanadi. Modernizm, formolizm, simvolizm singari yo'nalishlarga xos belgilar kirib keldi. Buning oqibatida she'rning shakli, shoirning uslubi o'zgaradi va she'riyat oldingi davrlarga nisbatan ranglashdi. Ruhiyat manzaralarini aks ettirish badiiy matn tiliga mavhumlik unsurlari, serqirra ishoralarini singdirdi.

Darhaqiqat, istiqlol yillari o'zbek she'riyatida falsafiy-intellektual ohang ancha kuchaydi. Inson ruhiyatini, ehtiros, his-tuyg'ularning keng silsilasini turfa ziddiyatli bo'yoqlarda aks ettirish, odamzod shuurini band etgan muammolarni butun murakkabligi bilan suvratlantirish, shaxsning yuksak milliy umuminsoniy mohiyatini ekspressiv tarzda ochib berishga intilish etakchi yo'nalishga aylandi².

Faxriyorning she'ridagi ikki so'z, tabiiy ravishda, o'quvchining e'tiborini torta-di, uni bu so'zlar ustida o'ylab ko'rishga, unga turli aspektlarda yondashishga undaydi. Birov oyni boltaga, boshqa birov boltani oyga mengzaydi. Sehrli bu so'zlar sabab kimdir siqilganlikni, ruhini oyni boltasi

^{1 1} Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Yangi yo'l poligraf service, 2010-yil, 186-bet

² O'z A S gazetasi, 2010-yil. 28-mart. 37-bet.

qiyimalaganini, boshqasi esa sokinlikni oy bolta ruhiyatiga qo'riqchi bo'lganini tuyadi.

Zamonaviy she'riyat XX asrning so'nggi o'n yilligida yangi miqyos, yangi kengliklarga ko'tarildi. Badiiy psixologizm tamoyillarining teranlashishi, mavzu doirasi va talqinida rang-baranglikka intilishning ortishi samarasi o'laroq, ijtimoiy muhokama o'rniga ruhiy faollik kirib kelishi jarayonining tezlashishi, shaxsiy intim kayfiyat tasviri ustivorligi mustaqillik yillarida bir qadar barqarorlashdi. Yuzaga kelgan ijodiy erkinlik sharoitida ko'p qatlamli she'riyat takomili ko'zga tashlanadi. Atoqli shoirimiz R.Parfi ijodida kuzatilgan uslubiy, shakliy izlanishlardan ma'naviy oziq olgan she'riyat jahon so'z san'ati tajribalari bilan uyg'unlashib nozik namunaviy umumlashma she'riyatni shakllantirmoqda. Bu she'riyatda so'zni o'zgacha shakllarda istifoda etish, yuksak aql-idrok (intellekt)ni fikriy tiniqlik hamda hissiy aniqlik sari yo'naltirish inson borlig'ini poetik tadqiqot obyekti darajasiga ko'tarish ruhiyat iqlimlarini chuqur falsafiy-majoziy tahlil qilishga moyillik, shaxsiy ixchamlilik asosiy vositalardan biri sifatida bo'rtib ko'rinadi. Rauf Parfi shu tarzda o'z hissiyotlari orqali bizning fikrimizni turli yo'nalishda harakatga keltiradi. U tuyg'uning tabiat va kishilar timsolida yashiringan holatini sekin-asta jonlantira borib, unga turli ranglar beradi, uni turli shakllarga soladi va shu tarzda o'quvchining ruhiy olamini mavjlantirib yuboradi.

Abdulla Oripovning sevimli poetik obrazlaridan biri yaproq, barg, xazon hisoblanadi. Bu obraz ko'pincha shoirga inson umrining o'tkinchiligi, yoshlik va keksalik orasidagi masofa yaqinligi haqida uqtirayotganday:

Bugun bosh ustingda yashnagan yaproq

Shovullab to'kilar erta poyingga.

Bu uchqur yo'lovchi solmaydi quloq

Sening iltimosing, sening fe'lingga.

Shoirning aksar izlanishlarida mazkur timsollar lirik qahramon qiyofasidagi o'ychanlik, tushkun kayfiyatni ifodalashga xizmat qiladi. Hayotning qonuniyatlari shunday: «bugun bosh ustingda yashnagan yaproq»

alaloqibat «shovullab to‘kilar erta poyingga». Bamisli «uchqur yo‘lovchi» - turmush oqimi inson xohishi bilan hisoblashmaydi. Zero, istak hamisha imkondan yuqori turgan. Shunday ekan, ezgu amallar odamzot ulug‘vorligini bezab turadi. Faqat va faqat shu yupanchgina shoir ko‘ngil dunyosidagi bo‘shliqlarni to‘ldirib turadi. Zotan, ijodkor yuksak ma‘naviyat va odob-axloq jarchisi sanaladi. She‘r ilhomi Olloh inoyati – g‘ayb marhamatining tuyg‘u, ehtiros, kechinmalar, o‘y-fikr va hayollar shaklidagi betakror ko‘rinishidir¹.

Zamonaviy o‘zbek she‘riyatining ma‘naviy miqyosi, badiiy salohiyati kundan-kunga oshib borayotganligi hech kimga sir emas. Shu ma‘noda hozirgi o‘zbek adabiyotida lirika adabiy turining o‘rni alohida tahsinga sazovor. Biroq ana shu boy va rang-barang xazinaning ijtimoiy-psixologik asoslarini, hozirgi ahvoli va istiqbolini yoritib beradigan ilmiy-nazariy tadqiqotlar nisbatan kam yuzaga kelmoqda. Hozirgi milliy poetika zamondoshimiz qalbida kechayotgan his-tuyg‘ularni aks ettirish barobarida mamlakatimizning har bir a‘zosida mustaqillikka shukronalik, porloq kelajagiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Hech bir mubolag‘asiz ta‘kidlash joizki, bugun biz baquvvat o‘zbek she‘riyatiga egamiz. She‘riyat sharqda asrlar davomida adabiyotning asosiy turi sifatida yashagani boisi ham uning ildizlari bag‘oyat teran ekanligidadir. Ammo bugungi o‘zbek she‘riyati kechagi she‘riyat emas, balki o‘zining ko‘pgina, xususan, shakliy-mazmuniy mundarijasiga ko‘ra yangilangan poeziyadir. Shu bilan birga, bugungi she‘riyat kechagi she‘riyatdan uzilib qolgan alohida hodisa ham emas. Ular o‘rtasida vorisiylik, uzviylik davom etib kelayotir. Zamonaviy o‘zbek she‘riyati mumtoz she‘riyatning eng yaxshi an‘analarini davom ettirgani holda jahon adabiyoti buloqlaridan ham suv ichib rivojlanmoqda. Misol uchun Erkin Vohidov qalamiga mansub «Ruhlar isyoni» dostonini keltirib o‘tish o‘rinlidir. Muallif dostonning yaratilishi haqida shunday degan: «Doston o‘zining isyonkor she‘rlari bilan butun Hindistonni erk uchun, ozodlik uchun kurashga ruhlantirgan

¹ Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Yangi yo‘l poligraf service, 2010-yil, 183-bet

otashin Bengal shoirining orzu-armonlari, jasorati, fojiviy qismati haqida. «Ruhlar isyoni» garchi Nazrul Islom haqida bo'lsa-da, unda shoir hayoti bahonasida o'zining umuman shoirlik, insoniylik, fidoiylik, erkka tashna ijod ahlining zamonasi, xalqi bilan murakkab munosabati, qolaversa, inson hayotining ma'nosi, uning ham shafqatsiz, ham adolatli haqiqati haqidagi o'y-mulohazalarimni kitobxon bilan baham ko'rishga intildim»¹.

Adabiyot kechagina dunyoga sotsiolizm, realizm tuynugi orqali qaragan bo'lsa, bugun uni tafakkur ufqi juda keng ayni mana shu keng ufq – badiiy tafakkur erkinligi hozirgi zamon poeziyasini - istiqlol davri o'zbek she'riyatini vujudga keltirayotgan bosh omildir. Shunga ko'ra har tomonlama boy she'riyatimizga nazar tashlab, uning bag'rida barcha tamoyillarning izini ko'rish mumkin: realizm, neorealizm, romantizm, simvolizm va bir qator avangard adabiy oqimlarning hayotbaxsh yo'llarida yaratilayotgan bugungi o'zbek she'riyati shoir tafakkurining yagona mafkuraviy iskanjadan holi ekanligidan boshqacha aytganda, chinakam hurligidan dalolat. Yana, shoirning qaysi yo'nalishda qalam tebratishi emas (zotan, bugun toza bir yo'nalishning o'zi yo'q, ular o'z taraqqiyot yo'llarida bir-biriga ta'sir qilib, sinkretik manzara kasb etib borayotir), balki qanday istedod bilan yozayotganligi hamda azaliy muhobaba – ezgulik va yovuzlik jangida qaysi tomonda turganligi tobora muhim bo'lib borayotir.

Hozirgi o'zbek she'riyati ifoda usuliga ko'ra taxminan quyidagicha ko'rinishga ega: an'anaviy, xalqona (folklor an'analari doxil); modern, aruz, sinkretik. Ammo ta'kidlash joizki, dunyoni estetik-badiiy talqini bobida asosan ikkita kuchning musobaqasini kuzatish mumkin: bu – an'anaviy va modern oqimlar o'rtasidagi bellashuv (Bunday musobaqa hamisha bo'lgan aslida va u yaqin tariximizda, masalan, «an'ana va novatorlik» deb atalgan)dir². Nima bo'lganda ham keyingi 20-25 yil mobaynida jamiyatda yuz bergan o'zgarishlar

¹ O'z A S gazetasi, 2010-yil. 28-mart. 39-bet.

² To'xliyev B va boshqalar. Adabiyot (majmua): akademik litseylarning III kurs o'quvchilari uchun. –T.: Bayoz, 2014. 64-bet.

zamonaviy o'zbek she'riyati qiyofasiga jiddiy ta'sir ko'rsatgani bor gap. Tashqaridan «keltirilgan» oqimlarning ta'siri esa allaqachon umrini o'tab bo'ldi.

Zotan, hayot barcha yangilanishlar manbai, sarchashmasi! Hayotimizda kechayotgan azim o'zgarishlar tufayli nafaqat she'riyat, balki butun boshli adabiyotimiz mafkuraga xizmat qilishdan qutilib, o'zining azaliy o'zaniga tushib bormoqda. Natijada adabiyot g'oyani tarannum etishdan bosh ko'tarib insonga yaqin keldi, uning dardini kuylay boshladi. Boshqacha aytganda shoir ko'nglini she'rga solishga kirishdi. Bularning hammasi yaxshi. Faqat kutilmaganda masalaning boshqa bir qirrasini yuz ko'rsatdi. Shoir haddan tashqari o'z olami bilan band bo'lib, atrofni, jamiyatni bir qadar «unutdi». Shoir uchun o'z subektiv olamigina birlamchi haqiqatga aylandi. Bu esa she'riyat maydonining torayishiga olib kelgan jiddiy sabablardan biri. Boshqa yoqdan esa shaklga qattiq mehr bog'lagan shoir adabiyotni o'yinga aylantirish payiga tushdi «haqiqiy adabiyot, chinakam she'r bu yuksak san'atdir» degan shoir ostida ijod qiluvchilar soni bir muncha ortdi. Bunday tutim ham ma'lum ma'noda she'riyatning ziyoli-ijodkorlar, bo'lajak filolog-talabalar, mutaxassislar va muayyan qiziquvchilar doirasida ko'proq o'qilishiga olib kelmoqda. Tursun Ali, Bahrom Ro'zimuhammad, Faxriyor, Aziz Said, Go'zal Begim kabi o'zbek shoirlari (dunyoqarashlari, iste'dodlari va uslublaridagi jiddiy farqlarga qarmay) qaysidir ma'noda shu umumiy yo'nalishning ko'zga ko'ringan vakillaridir.

Ayni paytda o'zbek she'riyatida an'anaviy yo'nalish hali hamon tashabbusni o'z qo'lida tutib kelayotganini ta'kidlash joiz. Chunki bu yo'nalish xalq ruhi bilan, uning qiziqish, o'y va dardlari bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Shunga ko'ra, bu yo'nalish vakillarining ijod namunalarini bir necha ming nusxada chop etilib, tez tarqalib ketadi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Halima Hudoyberdiyeva, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Muhammad Yusuf, Mahmud Toir, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo, Farida Afruz bugun eng ko'p o'qilayotgan shoirlar. Matnazar Abdulhakim, Sa'dulla Hakim, Usmon Qo'chqor singari shoirlarning bitiklarida hayotiy tajribaning falsafiy mushohadakorlik bilan yo'g'rilishi natijasida vujudga kelgan poetik lavhalarga guvoh bo'layapmiz. Rustam Musurmon, Salim Ashur,

Ikrom Iskandar, Qo‘chqor Norqobilning keyingi yillardagi ijod namunalari o‘zining pishiqchilik pallasiga kirganiga dalil¹. Halima Ahmedova, Rahimjon Rahmat, Zebo Mirzaevaning yaratgan ramziy she‘rlari esa yangilanayotgan badiiy tafakkur mahsuli sifatida namoyon bo‘lmoqda. Poytaxt, Qoraqalpog‘iston va viloyatlarda ijod qilayotgan Abdulla Sher, Kenesboy Karimov, Baxtiyor Kenjamurod kabi shoirlarning uzoq-yaqinlardan jaranglayotgan ovozlari she‘riyat ixlosmandlarini quvontirmoqda. Xullas, bugungi o‘zbek she‘riyatida anashu ikki yo‘nalishning izlari ko‘zga yaqqol tashlanib turadi. Ammo bir narsa aniqki, bu yo‘nalishlar doimo bir-biriga ta‘sir qilib, bir-birini boyitib, to‘ldirib boradi. Shunga ko‘ra, hamma ijodkorlarda turli adabiy yo‘nalishlar ohanglarini uchratishimiz mumkin va bu tabiiydir. Chunonchi zabardast shoir Rauf Parfining takrorlanmas she‘rlarida an‘ana va navotorlikka xoslik bir paytning o‘zida baravar yashaydi yosh shoirning doimiy ustozlari Ikrom Otamurod qalamiga mansub qator doston va she‘rlarda ham har ikki yo‘nalishning o‘ziga xos sintezini bexato ilg‘aymiz. Dastlabki she‘rlarida an‘anaviy ohanglar yetakchilik qilgan G‘ulom Mirzoning keyingi bitiklarida novatorlikka moyillik seziladi.

Bugungi o‘zbek she‘riyatining an‘anaviy tasvir uslubidan farq qiluvchi yangicha obrazlar, kutilmagan ramziy ifodalar, qochirimlar tazod va parodokslar, eng muhimi, betakror serohang, serma‘no ifodalar bilan kitobxonni o‘ylantiradi. Fikrning ixcham, lo‘nda shaklda ifodalanishi, zamonamiz va zamondoshimiz ruhiy olamini yangi jihatlardan poetik tadqiq etish – insonning bezovta ruhini, dardlarini tasvirlash borasida erishgan yutuqlari o‘zbek she‘riyati yangi poetik sarhadlarni kashf etayotganligidan dalolatdir. Xususan, iste‘dodli shoir Bahrom Ro‘zimuhammad yaratgan ana shunday poetik kashfiyotlar an‘anaviy shakllarga mos tushmaydi, gaplarning grammatik jahatdan parallel joylashtirilishi, ritorik tuzilish murojat, xitob ohanglarini ifodalashga yo‘naltirilganligi bilan yangicha:

Arvohnig dastxatini ko‘rdim
qoqilib yiqildim bir bo‘lak tushga

¹ To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. -113-bet.

Osmon qorachig‘i sug‘urib olingan
ko‘z kabi
Boyo‘g‘li uvillar edi
huvillab qolgan bog ‘da
Soyalar
hech kim taklif qilmasa-da
raqsga tushardi
Yana nima deyishim mumkin
dunyo keng ekan.

Mazkur she‘rda boyo‘g‘li, uvillayotgan kimsasiz bog‘, qorachig‘i sug‘urib olingan osmon, raqsga tushayotgan soyalar go‘yo tush ko‘rayotgan odam nigohlari orqali kuzatiladi. Tush esa o‘limga qiyoslanadi. Shu bois, shoir tasvirlayotgan manzara jonsiz, harakatsiz, ma‘nisizday tuyuladi¹. Ammo insonning ko‘zlariga yashiringan olam bilan aql va idrokka singishgan dunyo manzaralari ayni olamning turfa ko‘rinishlaridir. Shoir dunyoning kengligini ta‘kidlar ekan, uning rangin ekanligiga ham diqqatni qaratadi.

Jiyda guli meni mast qildi
jin chaldi jiydaning ostida
Sap-sariq chiroqmikan bu gullar
yulduz shu‘lasidan quvvat olarmi
nuqul qoshiqchalar jarangi
Eng xavflisi shundaki
bolari nektar yig‘moq uchunmas
sizni chaqish uchun keladi...

Jiyda gulining iforidan mast holdagi lirik qahramon go‘zallik o‘g‘risi sifatida tasvirlanadi. Tabiiy go‘zallikning sharbatini simiruvchi bolarilar bu «o‘g‘rini» chaqish uchun kelayotganday. Manzara an‘anaviy poetik tasvirga sira o‘xshamaydi. Shoir aytmoqchi bo‘lgan poetik fikr ham yashirin. Tasvirlanayotgan

¹ To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. -119-bet.

manzaradan kitobxon o‘z zehni va tuyg‘ulari quvvatiga ko‘ra ma’no anglaydi: go‘zallik qarshisida es-hushidan ayrilgan lirik qahramonni jin chalishi natijasida u jiyda gullarini sariq chiroqlarga, jiyda guliga parvona bolarining harakatlarini qoshiqchalar jarangiga o‘xshatadi. Ayni shu nuqtada poetik ma’no yuzaga chiqadi: bizni o‘rab turgan olam va uning go‘zalliklaridan hayratlanishni, zavqlanishni bilmagan inson hayoti ro‘yoga o‘xshaydi. Bunday odamlar faqat yeyish-ichish g‘ami bilan umr o‘tkazadilar, ularni bolarining mashaqqatli mehnati natijasi emas, o‘z jonining, huzr-halovatining bexavotirligi qiziqtiradi. Bunday odamlar bolaridan ham maydaroq, bolarichalik foyda keltirmaydigan, o‘z nafsining qullaridir. She’rda manzara ichiga qarab harakatlanuvchi spiral ko‘rinishli poetik tafakkur bu dunyoning rang-barang manzaralarga boyligini, har bir manzara o‘z ichki ma’nolariga ega ekanligini ifoda qiladi. Shoir she’rlaridagi har bir so‘z, har bir satr muayyan bir obrazli ifodaga, ramziy ma’noga va ichki ohangga ega ekanligini quyidagi she’r orqali ham kuzatish mumkin:

Uzoq taraddudlanib turdi qo‘rquv
Xotirjamlikka o‘xshab bamaylixotir
Tahlikaga chap berib turdi
Qo‘lini soyabon qilib qoshiga
Vahima yashayotgan uyga qaradi
Qaradi muzaffar navkar singari
So‘ng esa
So‘ng shunday alfozga tushdiki
Qaltiramagan joyi qolmadi.

Qo‘rquv obrazi orqali shoir diqqatimizni uning havfli ma’naviy illat ekaniga qaratadi. Kezi kelganda qo‘rqoq odamlar hotirjam, uddaburon, ayyor va o‘ta ehtiyotkordirlar. Ammo mardlik talab qilinganda ular o‘z-o‘zini fosh etadi. Ana shu ma’nolar qo‘rquv obrazi orqali tasvirlanayotgan manzara-holat zamiridan anglashiladi. Ko‘rinib turibdiki, bunday she’rlarning chuqur ma’nolarini ilg‘ab

olish uchun ikki muhim omilni teran idrok etish talab qilinadi: birinchisi, Navoiy, Bedil singari san'atkor ijodkorlarning merosidan, an'analaridan; ikkinchisi, umumyevropa badiiy tafakkurining nafis namunalaridan boxabarlik bugungi o'zbek she'riyatida Bahrom Ro'zimuhammad kabi shoirlar ijodida ana shu ikki muhim omil o'zaro tutashib yangi badiiy kashfiyotlar yaratilishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Barmoq vaznida yozilgan she'rlardan farq qiluvchi hijo, turoq va qofiyadan uzoq, xalq jonli tiliga yaqin bunday sərbast she'rlar ko'proq nasrga o'xshab ketsa-da, badiiy poetik tili, serma'noliligi, ohangi, so'z qo'llashdagi shoir mahorati ila she'riyatning ochilmagan sarhadlariga kitobxonni yetaklaydi.

Bugungi o'zbek she'riyati markazida turgan lirik qahramon zamondoshimiz qalbida kechayotgan his-tuyg'ularni XXI asr kishisining tafakkur tarzi, ruhiy evrilishlari fonida ifoda etmoqda. Agar istiqlolgacha bo'lgan davr o'zbek she'riyatida lirik qahramon tuyg'ulari ifodasi orqali uning qalbini anglashga, poetik tadqiq-u tahlil qilishga intilish ko'zga tashlansa, keyingi yillarda yaratilayotgan lirika namunalari biz ko'nikkan shakl va uslub chegaralaridan «qalqib chiqib», e'tiborimizni turfa manzaralar tasviriga qaratmoqda. Lirik qahramon nigohi qadalgan manzara qatiga yashiringan ma'nolarni esa kitobxon o'z tafakkur tuyg'ulari, badiiy-estetik idroki va fahmi orqali anglab olishi mumkin. Bu xususiyat she'riyatning sirli va rang-barang inson olamini shoir yoki lirik qahramon qanday anglayotganligini tasvirlashdan o'sha betakror insonlarning turfa idroklari-yu his-tuyg'ulariga, ko'ngillariga o'zlari yo'l topishlariga undash, insonni anglashga intilishdan uning qalbini o'ziga anglatish tomon qadam tashlanganligidan dalolat beradi. Hozirgi o'zbek she'riyatiga xos bu tendensiya qanday ijodiy-estetik tamoyillarda o'z aksini topmoqda?

1. O'zbek shoirlarining o'zbek klassik she'riyati va xalq og'zaki ijodiga xos an'analarni davom ettirib, poetik nutq xususiyatlaridan mohirona foydalanib, ijtimoiy-falsafiy ma'no tashuvchi badiiy umumlashmalarni yaratishga intilishlarida ko'rinadi.

Poetik nutqning o'ziga xos xususiyati – lakonizmdan foydalanib, e'tiborimizni liro-falsafiy fikr yo mushohada talab holatlarga, manzaralarga

qaratish xususiyati shoira Zulfiya Mo‘minovaning quyidagi she‘rida ham ko‘zga tashlanadi:

Ostonamda yig‘layotir kuz,
Ostonamda gangiydi shamol.
Ostonamdan olislagan iz –
Ostonamda og‘ir bir savol.
Men barini tushundim nogoh,
Hazonlarni gazga bosib jim.
Ostonamda men qilgan gunoh
Yolvorishni bilmaganligim.¹

«Ostona» so‘zining takror va takror qo‘llanishi yangi ma‘no tovlanishlariga ishora: yolg‘izlikda kechirilgan umrning so‘nggi «ostonasi» - kuz yig‘lamoqda. Nega? Nima uchun? Shamol ham umrning «so‘nggi ostonasi»gacha bu yolg‘izlik, tark etilganlikning ma‘nosini anglamay, umrini boshqa, begona eshiklar ostonasida o‘tkazgan inson hayotining adog‘i – ma‘nisiz hayotning «so‘nggi ostonasi» oldida inson qismatidan gangigan holatda...» hatto shamolning ham «uloqtirib», «uchirib», «ko‘tarib, tashlashga» bu ostonadan (ya‘ni makondan, uydan) hech nima topolmay, hayron holatda uni tark etayotganligi hayajonli va ta‘sirchan tarzda tasvirlangan. Bu ostonadan bosh olib ketgan, olislagan «iz» qoldirgan «og‘ir savol» ham hanuz javobsiz... Yolg‘izlikda umr kechirgan «lirik qahramon»ning xazonrezgi pallasidagi umr daraxtining qovjiragan xazonlarini yuziga bosib, o‘z gunohlarining ma‘no-mohiyatini tushungan holati quyidagicha tasvirlanadi: «Ostonamda men qilgan gunoh - Yolvorishni bilmaganligim» - deydi. Xo‘sh, yalinib-yolvorish nimaligini bilmagan lirik qahramonning «gunohi» nimada? Axir yetuk shaxslar hamisha mag‘rur bo‘lishgan, yolvorish binobarin, bosh eguvchanlik ular uchun yot xususiyat bo‘lgan. Bobur Mirzo, Mirzo Ulug‘bek shaxsiyatiga xos yetuklik alomatlari ham ayni shu jihatdan izohlanadi-ku! Gap shundaki, she‘rda shoira kibrga berilish, «man-manlik» natijasida o‘zi va o‘zgarlar dardidan,

¹ Mo‘minova Z. Yonayotgan ayol. –T.: Yozuvchi, 2012. 89-bet.

tuyg'ularidan, samimiyatdan yiroqlashgan inson qismatini lakonistik syujet yaratish orqali ta'sirchan manzaralarda tasvirlamoqda. «Ostona» - makon ma'nosida xilma-xil ma'nolarni ifoda qilgan.

2. Zulfiya Mo'minova lirikasida «oq ilon», «yomon tush», kabi xalq og'zaki ijodiga xos ramzlar; «tushlarning oqishi», «aql-u xush oqig'i» kabi mubolag'ali tasvirlar, poetik ko'chimlar, jarangli iboralar, tasviriy vositalardan o'z o'rnida foydalanish san'ati namunalarini ko'plab uchratamiz. Bu xususiyatlar shoira she'rlaridan anglashiluvchi poetik tafakkur tarzining serohangliligi, ma'no tovlanishlari, obrazlilik va poetik nutq imkoniyatlaridan unumli foydalanish natijasi ekanligi aniq. Bu hozirgi o'zbek she'riyatiga xos estetik tamoyildir. Hozirgi o'zbek she'riyatida A.Oripov, X.Xudoyberdiyeva, U.Azim, Z.Mo'minova, R.Parfi, Qutlibeka, S.Sayyid, A.Qutbiddin, Faxriyor kabi shoir va shoirlar ijodida poetik nutq shakllaridan unumli foydalanib, o'z ichki dunyosini o'z tili – «men» orqali batafsil va hayajonli tarzda ochib berish tendensiyasi ko'zga tashlanayotir.

Demak, o'zbek she'riyatida rang bilan bog'liq ramziy obrazlarni shartli ravishda quyidagicha turkumlash mumkin:

1. Insoniy sevgi-muhabbat mavzuidagi ramzlar.
2. Insoniy fazilatlarni ulug'lashga, mehr-oqibat, ezgulikni qadrlashga undash mavzuidagi ramzlar.
3. Ijtimoiy – siyosiy mavzudagi ramzlar.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi o'zbek she'riyati markazida turgan lirik qahramon zamondoshimiz qalbida kechayotgan his-tuyg'ularni XXI asr kishisining tafakkur tarzi, ruhiy evrilishlari fonida ifoda etmoqda. Agar istiqlolgacha bo'lgan davr o'zbek she'riyatida lirik qahramon tuyg'ulari ifodasi orqali uning qalbini anglashga, poetik tadqiq-u tahlil qilishga intilish ko'zga tashlansa, keyingi yillarda yaratilayotgan lirika namunalari biz ko'nikkan shakl va uslub chegaralaridan «qalqib chiqib», e'tiborimizni turfa manzaralar tasviriga qaratmoqda.

1.2. Mustaqillik davri she'riyatida Vatan mavzusi

Har qanday shoir yoki ijodkorning kamolotga erishuvi avvalo uning milliy g'oya va qadriyatlarga qanchalik sadoqat va ularni o'z ijodida qo'llay olishidadir. Ana shunday milliylikni, vatanga bo'lgan cheksiz muhabbatni o'z ijodida kuylay olgan buyuk ijodkorlar sifatida A.Oripov, E.Vohidov, H.Xudoyberdiyeva, Z.Mirzo, Iqbol Mirzo, Muhammad Yusuf va boshqa zamonaviy o'zbek she'riyati namoyondalarini aytib o'tish o'rinlidir.

O'zbek shoirlarining o'zbek klassik shariyati va xalq og'zaki ijodiga xos an'analarni davom ettirib, poetik nutq xususiyatlaridan mohirona foydalanib, ijtimoiy-falsafiy ma'no tashuvchi hamda vatanparvarlik tuyg'usini o'ziga hos tarzda tarannum etuvchi badiiy umumlashmalarni yaratishga intilishlarida ko'rinadi.

«Xalqim deyman, ruhim tushib,
Kimlar ko'ngling to'q qildilar
Ming so'qiring til topishib,
Bir uyg'og'ing yo'q qildilar!»¹

Shoira H.Xudoyberdiyeva qalamiga mansub ushbu she'rda muhim ijtimoiy ma'naviy illatga kitobxon diqqati tortilgan: qalb ko'zlari ochilmagan, ma'naviy «ko'rlar» birlashib, el-yurt dardida bedor chinakam fidoiylarni yo'q qilishga chog'lanishlarining o'zi kata fojea! Zero yaratuvchi fidoiy inson darajasini zabt etishi uchun, avvalo, inson o'zligini yuksaltirmog'i, xalq dardi bilan yonib yashaydigan, uyg'oq qalbli bo'lishi kerakki, bunga «qalb ko'zi ochilgan» buyuk insonlargina erisha olganlar. Afsuski bunday insonlar barmoq bilan sanarli. Yurt manfaatlaridan o'z xohish-istaklarini ustun qo'yuvchi ma'naviy ojiz qalb ko'zlari «ko'r» kimsalar esa ko'pchilikni tashkil etadi.

Ma'lumki Abdulla Oripov ijodi xususida baxs yuritgan taniqli munaqqidlarning maqolalarini o'rganish asnosida Salohiddin Mamajonov, Mahkam Mahmudovning she'riyat haqidagi fikrlari, Matyoqub Qo'shjonovning Abdulla Oripov ijodiga bag'ishlangan «Onajonim she'riyat» deb nomlangan

¹ Xudoyberdiyeva H. Saylanma. – T.: Sharq. 2001. 398-bet.

risolasi, Norboy Xudoyberganovning «Ehtiros to‘lqinlari» kitobidagi shoir she‘rlariga munaqqid munosabatini o‘rgandik.

Yuqorida aytilgan manbalarga suyanib, Abdulla Oripov she‘riyatida vatan mavzusining o‘zi bir necha o‘ziga xos xususiyatlardan iboat ekanligini anglab olish mumkin. Shoirning she‘rlarida vatan madhi xalq qalbini tarannum etish asosida ochib berganligi uning naqadar buyuk shoir ekanligidan dalolatdir.

Shoirning xalqqa, xalqning esa shoirga bu qadar dildosh va sirdosh qilgan shoir fazilatlarini, o‘ziga xos xususiyatlarini nimada ekanligini Matyoqub Qo‘shjonov shunday yozadi – «Abdulla qaysi bir mavzuga qo‘l urmasin, nima haqda she‘r yozmasin, uning ko‘zi oldida Ulug‘ Vatan turadi, o‘sha ulug‘ Vatanning farzandi sifatida qo‘liga qalam oladi. Shu sababdan uning she‘rlari doim hayotbaxsh, pafosi baland, ovozi dadil, ruhi tetikdir»¹.

Abdulla Oripov vatanni madh etuvchi she‘rlarining boshqa shoirlarnikidan ajralib turadigan va xalqqa manzur qilgan xususiyatlaridan biri uning xalqchilligida, xalq tilida yozilganligidadir.

Kolumbda bor alamim manim,

O‘zbekiston Vatanim manim!

Shoir kuylagan bu «alam» - xalqning buyuk armoni, dardi, g‘ururi ekanligini xalq qalbiga tarjima qilgan bu misralarni o‘qigan har bir she‘rxon bu «alam»ni o‘z qalbiga tuyadi. Taajjubki bu alamdanda ko‘ksi tog‘dek ko‘tariladi.

Abdulla Oripovning «Yurtim shamoli» she‘ri mening nazarimda ham zukko rassom mo‘yqalami bilan chizilgan tengsiz suratga, ham sohir qalbli bastakor yaratgan kuyga o‘xshaydi. Shoir vatan shamolining zangori suratini chizar ekan, avval bahor yellarining atlas ko‘ylaklar etagini taragandagi mayin saslari eshitilganday bo‘ladi. So‘ng esa goh shodlik, goh qayg‘u nafasi olib kelgan dolg‘ali shamollar ovozini tinglaymiz.

¹ To‘xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. Adabiyot (Majmua. Akademik litseylarning uchunchii bosqich o‘quvchilari uchun). – T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010-yil, 178-179-betlar.

Shoirning maqsadi faqatgina Vatan shamolining suratini chizish emas, u olamdagi «qancha bo‘stonlarni sovurgan» davronlar bo‘ronidan so‘ylab, «qayg‘ulardan holii» yurti shamolini kuylamoqdir.

O‘zbek xalq yozuvchisi Said Ahmadning shunday so‘zlari bor: «...shunday kishilar bo‘ladiki, ulardan biri, birortasi paydo bo‘lsa davraga fayz kiradi, Suhbati jahon bunday kishilarni «shoiri odam»¹ deb aytadilar!» Chindan ham, shoir nafaqat davra ko‘rki, balki millat, Vatanning ko‘rki, faxridir.

Zero shunday ekan, hozirgi davr shoir va yozuvchilari Vatan ozodligi, uning hurligini madh etish, madh etganda ham ovozini baralla qilib kuylashi tabiiydir. Istiqloлга erishganimizdan keyingi yillari har biri juda katta o‘zgarishlar, yuksalishlar bilan boyib borayapti. Xalqimizning ham moddiy, ham ma’naviy hayoti albatta, yaxshi tomonga qarab o‘zgarib bormoqda. Shu yillar dastavvalidan ma’naviy hayotimizda yangi bir uyg‘onish ro‘y berdi, o‘zligini milliy qadriyatlarini anglash kuchaydi. Badiiy adabiyotga munosabat tubdan o‘zgardi. Fikrlar xilma-xilligi uchun keng yo‘l ochildi. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi qonun bilan rasmiylashtirildi. Konstitutsiyaning 12-moddasida «O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot, siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emas» deb yozib qo‘yilgan. Bu ijtimoiy, ma’naviy, adabiy taraqqiyot uchun muhim tarixiy ahamiyatga ega. Ehtimol, o‘zbek xalqi, adabiyot va san’ati tarixida ilk bor shunday kafolatga ega bo‘ldi. Bunday kafolat samarasini esa, amalda ko‘rib turibmiz. Inson uchun erkin yashashdan ko‘ra kattaroq baxt, o‘z Vatanida bekklikda umr kechirishdanda ko‘ra yuksakroq iqbol bo‘lmasa kerak.

Shuning uchun o‘z vataniga bag‘ishlab she’r yozmagan, uning istiqloli, hurligi haqida g‘ururga, cheksiz quvonchga to‘lib qalam tebratmagan shoir dunyoda topilmas. She’riyatning o‘zi esa ilohiy bir kuchga ega.

¹ S.Ahmad. Yo‘qotganlarim va topganlarim. Toshkent. 2000-yil, 67-bet.

O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston qahramoni Abdulla Oripov — tug‘ma iste’dod egasi. U-juda siyrak uchraydigan noyob, nodir shoir. Uning so‘z san’ati xazinasiga qo‘shgan hissasi bebaho. Ana shuning uchun ham birinchi Prezidentimiz Islom Karimov shoir ijodiga yuksak baho berib, «Biz XX asr adabiyotini Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Oybek kabi mumtoz adiblarsiz, zamonaviy adabiyotimizni Said Ahmad. Erkin Vohidov singari ijodkorlarsiz tasavvur eta olmaganimizdek, ma’naviv kelajagimizni, farovon va buyuk istiqbolimizni Abdulla Oripov ijodisiz ko‘z oldimizga keltira olmaymiz. Hozirgi davrda uning she’rlari xalqimizni adolat tantanasi, yorug‘ kelajakka ishonch ruhida tarbiyalaydigan yuksak ma’naviy omil bo‘lib xizmat qilmoqda»¹, — degan edi.

Abdulla Oripov ijodining fazilatlari haqida adabiy tanqidchilik va adabiyotshunoslikda juda ko‘p fikrlar bayon etilgan. Izzat Sulton. M.Qo‘shjonov . O.Sharafiddinov, L.Qayumov, S.Shermuhamedov, U.Normatov. G‘afurov, Suvon Meli, N. Xudoyberganov kabi atoqli olimlar Abdulla Oripov ijodiga haqli ravishda yuqori baho berganlar. «Onajonim she‘riyat» (M. Qo‘shjonov). « she‘riyat — qalb yolqini» (O. Sharafiddinov), «Abdulla Oripov she‘riyatining asosiy xususiyatlari» (M. Qo‘shjonov, Suvon Meli), «she‘riyat —kurashchanlik demak» (I. G'afurov), «Dovonlardan dovonlarga» (N. Xudoyberganov), «she‘riyat — shoir yuragi» (R.Vohidov, M.Hoshimova) va boshqa risola. ilmiy ocherk va xilma-xil maqola-yu taqrizlar ham bu fikrning jonli dalilidir. Akademik Izzat Sultonov shoir ijodini te‘ran tahlil etib: «A. Oripov she‘riyatining eng muhim xususiyati odamlarni birlashtiruvchi kuch-qudratdir. Bu — haqiqiy she'riyatning eng ulug' fazilatidir»²,—degan xulosaga kelgan edi. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov esa: «Abdulla Oripov she‘riyatiga nisbatan tashbeh qo‘llaydigan bo‘lsak, u dutor navosiga o‘xshaydi: birda cheksiz mung bilan dillarni larzaga keltirsa, birda sho‘xchan tus oladi, mayin va o‘ziga xos taronasi tag‘in kishini maftun etadi. Uning asarlari qon tomirida o‘t bilan suvdek bir-biriga zid tuyg‘ular tinimsiz oqib

¹. « O ‘z A S » gazetasi. 2001-yil. 23-mart.

² Izzat Sulton Adabiyot nazariyasi. –Toshkent: 2009.

turadi. Shuning uchun ham har bir she'ri hayotning yetuk falsafiy idroki hosilasi bilan to'yingan. Boshqa bir she'ri esa dardu g'amga to'liq, nolali va ruhsiz. Bir she'ri sho'xchan. Qochirimli va yumorga boy, boshqa bir she'ri esa saxovatli qalb mehri to'liq. Shuning uchun ham u betakror hayotning o'ziday murakkab, hayotning o'ziday so'lim va jozibali yuraklarga yaqin. Ona Vatan - Abdulla ijodining bosh mavzui. Vatanni undan ham kuchli sevish, sharaflash mumkinligini hozircha bunchalik yorqin namoyon etayotganlar kam»¹, — deb yozgan edi. Abdulla Oripov ijodiga jahondagi boshqa millat yozuvchilari va olimlari ham yuksak baho berganlar. Mashhur bolgor shoiri Qaysin Quliyev o'tgan asrning 60-yillaridayoq: «Abdulla Oripov she'riyatida men fikrning salmoqdorligini, obrazlarning ohorli. quymaligini, o'quvchini zeriktiruvchi tor ma'noli «qizil so'zlik»dan holilikni ko'rdim. Yosh shoir so'zning ifoda kuchini bexato sezadi. hayotni o'z bo'lishicha, uni o'ziga xos yangi nazar bilan ko'radi. O'zbek she'riyatini yangi katta iste'dod bilan qutlasa bo'ladi»², — deb ta'kidlagan edi. Abdulla Oripov ijodiga Chingiz Aytmatov kabi ulug'lar ham tegishli tarzda yuqori baho berganlar. Chingiz Aytmatov: «Shoirning so'zlaridan zamondoshlari ham, kelgusi avlodlari ham faxrlanib yuradilar»³, —deb yozgan edi. Abdulla Oripov 1941-yil 21-martda Qashqadaryo viloyati Koson tumaniga qarashli Neko'z qishog'ida tug'ildi. Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zMU)ni bitirib. turli

nashriyotlarda (1963-1974), «Sharq yulduzi» va «Gulxan» jurnallari tahririyatida (1974-1980), O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida (1980-1985) ishladi. Abdulla Oripov Navoiy va Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotlarining sovrindoridir. Abdulla Oripov she'riyatimizga XX asrning 60-yillarida Erkin Vohidov, O'tkir Hoshimov, Muhammad Ali, Oydin Hojiveva, Barot Bovqobilov, Rauf Parfi, Omon Matjon singari iste'dod sohiblari bilan bir qatorda kirib keldi. 60-yillardayoq o'z uslubi va o'ziga xos yangroq ovozi bilan she'riyatimizda yangiliklar yaratib. Ko'pchilik e'tiboriga sazovor bo'ldi. Abdulla Oripovni hozirgi

¹ «O'z A S» gazetasi. 1991-yil. 28-mart

² «O'z A S» gazetasi, 1991-yil. 28-mart..

³ «O'z A S» gazetasi. 1991-yil. 28-marl.

kunda butun dunyo biladi va uning rango-rang asarlarini qiziqib, sevib o'qiydi. Bu benazir shoirning bundav mashhur ijodkor darajasiga yetishi osonlikcha bo'lmadi, albatta. Zotan, shoir yoshligidanoq ijodiy ishga katta mas'uliyat bilan qaradi. Ko'p o'qidi. Abdulla Oripov: «Men bir narsaga aminmanki, tabiat kishiga qanchalik iste'dod bermasin. Agar uni muttasil o'qish-o'rganish bilan qisqasi ilm va mehnat bilan mustahkamlab bormasa, biror natijaga erishishi mushkuldir»¹— deb yozgan edi. Abdullaning ijodiy kamolotida tinimsiz mehnat bilan birga, ustoz shoirlardan olgan saboqlar ham muhim rol o'ynagan. Abdulla Oripov Alisher Navoiy, Bobur, G'. G'ulom, Oybek, Cho'lpon, H. Olimjon, U. Nosir, Mirtemir, A. Qahhor singari buyuk ustozlar ta'sirida o'sib kamolotga yetgan. Abdulla Oripov: «Ko'pgina adiblarni o'sha paytdan (maktab o'quvchisi paytidan — S. M.) g'oyibona taniganman, ilk she'rlarimni o'shalarga ergashib yozganman», — degan edi. Abdulla Oripov she'riyatga hech qachon ermak deb qaramaydi. Uni doimo vijdon ishi deb biladi. Shuning uchun ham shoir asarga jilo va sayqal berishdan aslo erinmaydi.

Abdulla Oripov shoir sifatida o'sib tezda ijodiy kamolotga erishdi. Natijada she'riyatimiz xazinasiga yil sayin tobora ko'proq va qimmatliroq hissa qo'shib bordi. Shoirning dastlabki ba'zi she'rlarida mavhumlik, noaniqlik alomatlari, shuningdek, bahsli, ziddiyatli o'rinlar seziladi. A.Oripovning keyinchalik yaratilgan ayrim she'rlari va «Jannatga yo'l» dostonida mungli nido, ma'yuslikning mavjudligi ham asoslidir. Bular Abdulla Oripovning turg'unlik davridagi adolatsizlik va ko'zbo'yamachilikka bo'lgan keskin e'tirozining inikosidir. Akademik Matyoqub Qo'shjonov haqli ravishda qayd etganidek: «Vaqtlar o'tdi. Qayta qurish ishlari boshlandi. Bir vaqtlar shoirning mungli bo'lib ko'ringan she'rlari mavjud hayotning aks sadosi ekani, shoir qalamga olgan manfur hodisalar o'sha davrga xos haqiqatning o'zi ekani ma'lum bo'ldi. Uning haqiqatgo'y, hozirjavob shoir ekaniga hamma tan berdi»².

² *Qo'shjonov M.* Benazir iste'dod. — «Sovet O'zbekiston i» gazetasi. 1991-yil. 29-mart.

Abdulla Oripov o'zbek xalqiga xos ezgulikni, yuksak axloq-odobni ulug'lashda uzoq va yaqin o'tmish mavzulariga ham murojaat qiladi. Shoir xalqning ibratli an'analari. O'ziga xos milliy xususiyatlari va urf-odatlarini ixlos bilan tasvirlab, uni hozirgi kun muammolarini hal qilishga mohirona yo'naltiradi. O'zining xalq va Vatan manfaati taqozo etsa, tog'ni talqon etishga, igna bilan quduq qazishga tayyor ekanini ifoda etadi. Abdulla Oripov tom ma'noda milliy shoir. Chunki shoir ijodida millat hayoti, uning kavfiyati, orzu-istaklari, turmush tarziga doir rang-barang jihatlar asosiy o'rinni egallaydi. Darhaqiqat, adabiyot ham, yozuvchi ham milliy bo'lishi, o'z xalqining tub milliy manfaatlarini ko'zlashi va unga bevosita xizmat qilishi kerak. Bu obektiv haqiqatdir. Lekin yozuvchi hayotni doimo haqqoniy tasvirlashi, boshqa millatlarga samimiy do'stlik, birodarlik nuqtai nazaridan qarashi ham lozim. Abdulla Oripov ijodi bu jihatdan ham ibratlidir. Chunki shoir she'riyatida xalqlar do'stligi mavzui xolisona, hayot haqiqatiga mos ravishda yoritiladi. Masalan, muallif o'zbek va tojik xalqlari o'rtasidagi do'stlik haqida kuylar ekan, uning tilidan shakar-bol tomadi:

Do'stu qardoshdir azaldan
O'zbegin tojik bilan,
Ikkisi bir bayt g'azaldan
O'zbegin tojik bilan.

Abdulla Oripovning «Armaniston», «Qozog'iston», «Qirg'iz diyori», «O'zbekiston», «Sovg'a» kabi asarlari ham xalqlar do'stligi, birodarligi g'oyalari bilan qondirib sug'orilgan. Demak, Abdulla Oripov she'riyatida milliylik bilan baynalmilallik uzviy birlikda namoyon bo'ladi. Shoirni faqat o'z millati va mamlakatining tashvishu-dardlarigina emas, balki butun jahon xalqlarining taqdiri, g'amu-alamlari ham bezovta qiladi. Buni shoirning chet el mavzulariga bag'ishlangan, xususan, G'arbiy Yevropa va Amerika safari taassurotlari asosida yozilgan «Ikki Amerika», «Meksika», «Los-Anjelos ko'chalarida», «Tunislik bola» singari she'rlarida yaqqol ko'rish mumkin. «Tunislik bola» she'rida Rimda

tunislik begunoh bir bolaning bezorilar tomonidan ermak-mazax qilinib, yondirib yuborilganligi gʻazab bilan tasvirlanadi.

Abdulla Oripov ijodida mustaqillikni qutlash va ulugʻlash uni koʻz qorachigʻiday asrash va mustahkamlashga chaqiriq bilan chambarchas bogʻliq holda aks ettirildi. Shoir ozodlikni bebaho, buyuk ijtimoiy neʼmat sifatida taʼriflab, uning asl mohiyatini faxr va iftixor bilan koʻrsatib berdi. Uning «Oliy neʼmat» sheʼrida tasvirlanishicha, bir Xoja nogahon dardga yoʻliqib, davo izlab yelib-yuguradi. Oxiri paymonasi toʻlib yorugʻ dunyodan umidini uzadi. Shu choq eshigida ishlab yurgan va tabiblikka daxli bor bir qul kirib, uni davolaydi. Xoja shifo topadi va qulga «qilgan xizmatining yoʻqdir bahosi», «tila tilagingni», «sochayin boshingdan oltin va kumush», «istasang, mulkimning teng yarmini beray» deydi. Qul esa oltinning ham bahosi bor, agar mening xizmatim oʻzingiz aytganingizdek bebaho boʻlsa menga bebaho neʼmat bering deydi. Shunday qilib, qul katta boylikka — oltinga ega boʻlishdan koʻra, ozodlikni ustun qoʻyadi va buni shoir mumtoz adabiyot anʼanalaridan ijodiy foydalangan holda mahorat bilan tasvirlab beradi.

Qul dedi: Bir neʼmat bordir bebaho,
Unga sadqa boʻlsin molu-mulk, dunyo.
Falaklar bekordir uning qoshida,
Malaklar bekordir uning qoshida.
Unga nisbat bersa, qafasdir jannat,
U shundoq tansiq his, tengi yoʻq neʼmat.
Uning nomi ne deb qistardi Xoja,
Sirni bilmoqlikni istardi Xoja.
Qul dedi: Bu neʼmat jondan-da totlik.
Nomi Ozodlikdir, nomi Ozodlik!

«Tavallud taronasi» turkumiga kirgan sheʼrlarda qishloq odamlarining oʻz mehnati samarasidan quvonchi, fasllarning moʻjizakor tarovati, tabiat

yashnashidan odamlarning yashnashi, o'zining hayotdagi o'rni va ezgu amollaridan mamnuniyat tuyg'ulari, tavallud topib shu narsalarga erishgandan shukronalik hislari, ona diyorga mehr muhabbat ifodalandi:

Tug'ilgan kunim haqqi
Hur shamolga assalom!
Istiqlolga assalom!
Dilda cheksiz ehtirom,
Ota yurtim assalom!
Ona xalqim assalom!

Inson o'z-o'zidan bino bo'lmaganligi, barcha narsaga o'zicha erishmaganligini anglash, boshqacha aytsak, o'zini butun xalqning bir bo'lagi, farzandi ekanligini his qilish insoniylikka yo'naltiruvchi ruhoniyl omillardan biridir. Shunday ruhiyatdagi kishilar manmanlikka berilmaydi. Demak, manmanlik tufayli yuz beradigan g'ayriinsoniylik o'z-o'zidan barham topadi. She'r matniga singdirilgan bunday fikrlar milliy g'oyani taminlaydi.

Millatning millatligini belgilovchi ideallarni anglatish ham muhim g'oya sanaladi va adabiyotning muhim ijtimoiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Istiqlol davriga kelibgina adabiyot buni o'zining muhim masalasiga aylantirdi. Bu masala millat va yurt ravnaqida katta ahamiyatga ega. Chunki o'tmishni, tarixiy shaxslarni anglash kelajakni qarshilashga, uning farovonlik sari odimlash yo'lini to'g'ri belgilashga imkon beradi.

Sharq qadimdan madaniyat beshigi, go'zal axloqlar markazi, adolat va haqiqat makoni ekanligi hozirda hammaga ayon. Lekin buning negizi nimada ekanligini hamma ham bilavermaydi. Buning sababi bizningcha, haqqa intilishdir. «Haq» so'zi ikki manoga ega ekanligini unutmasligimiz kerak. Birinchisi – Oллоh, ikkinchisi – haqiqat. O'zi yurgan yo'lning to'g'riligiga sobit ishonch va hamma ishlarda halollik, to'g'rilik. Bunday yo'lda yurganlar uzoq va yaqin o'tmishda qatag'on qilinganlar. Afsuski, uzoq yillar davomida

ularning shaniga tosh otib, ruhlarini chirqiratdik. Vatanga muhabbat, onaga muhabbat kabi muqaddas va buyuk tuyg'u. Oллоh insonga Vatanni muzliklarda ham, sahrolarda ham, changalzorlarda ham ato etishi mumkin. Lekin, yaratgan bizga O'zbekiston deb atalgan tuprog'ida oltin bor, har tongda bulbullar madhini o'qib tugatmaydigan bir yurtni Vatan qilib bergan. Buning, uchun biz o'zimizni baxtli deb bilmog'imiz kerak. Taniqli adabiyotshunos O.Sharafiddinovning shunday so'zlari bor: «...Vatan bizga ato etilgan ulug' ne'mat ekan: Vatanga muhabbat ham har birimizga berilgan ulug' ne'matdir»¹.

Darhaqiqat Vatan barchamiz uchun muqaddas. Ana shunday vatanni sevgan vatanparvar shoirimiz. M.Yusuf lirikasida ona yurtimiz madh etilgan she'rlar juda ko'p.

Uning she'rlari qanaqa dolzarb mavzuni ilgari surishidan qat'iy nazar har birining zamirida tug'ilib o'sgan diyori uning beqiyosligi e'tirof etilgan. M.Yusuf ijodida o'zbek xalqi yurtisiz tasvir topmaydi. Quyidagi parchada ham fikrimiz to'g'riligining guvohi bo'lamiz.

Ehtirom etganga ehromlari bor,
Kekkaygan bo'yin egmaydi zinhor.
Beshik to'la jajji Islomlari bor -
Tosh o'tmas qo'rg' o'xshaydi o'zbek
Kindik qoni tomgan tuproq unga shon,
Kerak bo'lsa, beso'z baxt etar u jon-
Ko'krakka urmaydi: Vatan deb, Vatan!
Alpomish o'g'longa o'xshaydi o'zbek.

Yuqoridagi she'rda asosan el ta'rifi, o'zbek millatiga xos fel-atvor chizgisi berilgan lekin, u yurtsiz hech kim emas. Shuning uchun ham, millat vatani birgalikda ajoyib suratga tushirilgan.

¹ O'zbek adabiyoti va san'ati gazetasi 2010-yil 4-soni 34-bet.

II BOB. ISTIQLOL DAVRI SHE'RIYATINING YETAKCHI VAKILLARI IJODINI O'RGANISH

2.1 A.Oripov she'iyatini o'qitishda audio va video materiallardan foydalanish

Respublikamizda ta'lim tizimida o'quv adabiyotlarining zamonaviy turlari va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish, ular yordamida ta'lim tizimini jahon andozalari darajasiga yetkazish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, o'quv adabiyotlarining zamonaviy turlaridan biri bo'lmish audio va video darsliklar yaratish va ta'lim tizimiga joriy qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar shular jumlasidandir.

Ta'lim tizimiga zamonaviy audio va video adabiyotlarni joriy qilish borasidagi amaliy ishlarning ahamiyati, ayniqsa adabiyot fanini o'qitish jarayonida ulardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Istiqlool davri she'riyatini o'quvchilar ongiga singdirish va shu orqali ularning dunyoqarashlarida vatanga bo'lgan muhabbatni, ona yurt taqdiriga dahldorlik hamda insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda shu davr she'riyati asosida yaratilgan audio va video materiallarning ahamiyati beqiyosdir.

«Ta'lim to'g'risi»gi Qonun va «Kadrlash tayyorlash Milliy dasturi»ni amaliyotga joriy etish o'quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan uzviy bog'liqdir. Taniqli olimlar R.Hamdammov, U.Begimqulov, N.Tayloqovlar multimedia texnologiyasini zamonaviy axborot texnologiyalarining asosiy yo'nalishlaridan biri ekanligini ta'kidlaganlar¹. Ma'lumki, axborot texnologiyasining asosiy komponentlariga – matn, jadval, grafika, tasvir, audio, video kabi komponentlar kiradi. Amaliy ishlarda esa yuqorida sanab o'tilgan komponentlardan foydalaniladi. Multimedia texnologiyasida komponentlardan tashqari animatsiya, musiqa va turli bezaklar ishtirok etadi hamda ular multimedia texnologiyasini axborot texnologiyasidan farqlantiradi. Shu sababli gurkirab rivojlanayotgan multimedia texnologiyasini axborot texnologiyasining asosiy yo'nalishi deb qarashimiz mumkin. Multimedia mustaqil yo'nalish sifatida 1990-

¹ To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. -116-bet.

yilning boshida Amerikada tashkil topdi. Shu yili kompakt disklarga multimediyaga doir 10 ta dastur yozildi, keyinchalik esa ularning soni ko'paya bordi. Multimedia texnologiyasining tavsifi ta'lim multimedia texnologiyasidan uzliksiz ta'lim tizimida keng foydalanish imkoniyati mavjud.

Yuqoridagi keltirib o'tilgan ma'lumotlardan anglashimiz mumkinki multimedia, xususan, audio va video materiallar ko'plab sohalar kabi ta'lim tizimida ham ulkan ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa bugungi kunda ta'lim tizimiga innovatsion yondashuv ehtiyoji mavjud bo'lib, bu ehtiyojni aynan dars jarayonlarida audio va video materiallarni qo'llash orqali qondirish mumkin. Ularni qo'llashning ahamiyati shundan iboratki bugungi globallashtirilgan, mafkuraviy kurash avj olgan zamonda mamlakatimiz aholisi, ayniqsa kelajak bunyodkorlari bo'lmish yoshlarni har qanday mafkuraviy, informatsion hurujlardan himoya qilishda katta ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlash joizdir. Shuning uchun ham mafkuraviy kuchga ega bo'lgan, insonni ezgulikka chorlaydigan, o'quvchini vatanparvarlik ruhida rabiylaydigan hamda o'z manfaatidan yurt manfaatini ustun qo'ya oladigan yoshlarni tarbiyalashga undaydigan katta kuchimiz, ya'ni she'riyat, xususan istiqloq davri she'riyamiz borligi bizni quvontiradi albatta. Lekin, shu o'rinda bir savol tug'iladi ayni paytda bu ulkan merosdan ta'lim tizimida oqilona foydalana olayapmizmi? degan savolga baralla ha deb javob bera olmaymiz albatta. To'g'ri bugungi kunda ta'lim tizimida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda, ammo, hali qilinishi lozim bo'lgan ko'plab ishlar ham mavjuddir. Shular qatorida o'quvchi-yoshlar ongida ijobiy hislatlarni shakllantirish borasida, ulkan merosimiz bo'lmish istiqloq davri she'riyatini ularning qalbi va ongiga singdirishda audio va video materiallardan foydalanish borasida ulkan ishlarni amalga oshirishimiz joizdir. Ho'sh uning ahamiyati nimada? Ulardan foydalanish qanday samara beradi degan savollarga javob topsak.

Video so'zi lotincha «video» so'zidan olingan bo'lib- «ko'rayapman», «qarayapman» kabi ma'nolarni anglatadi. Hozirgi vaqtda ta'lim tizimida video ma'lumotlardan foydalanish keng ko'lamda qo'llanilmoqda. O'z davrida Konfutsiy shunday degan edi: «Eshitganlarimni unutamam, ko'rganlarimni eslab qolaman».

Insonda ko‘rish hissiyoti eshitish hissiyotidan yuqori turadi. Shuning uchun video ma‘lumotlar eng ko‘rgazmali ma‘lumot hisoblanadi. Ishonch bilan aytish mumkinki audio va video ta‘limni keng ko‘lamda qo‘llanilish juda katta samara beradi. Video ta‘limning asosiy maqsadi: O‘quv jarayonida bo‘layotgan ma‘lumotni jonli tarzda tasavvur qila olishga yordam beradi va tasavvur qilingan bilim inson xotirasida uzoq saqlanishi bilan birgalikda o‘z bilimini o‘quvchi analiz qilib kelajakda hayotiy jarayonlarda qo‘llay oladi. Aynan shu ta‘limning asosiy maqsadlaridan biridir.

Audio so‘zi lotincha, «Audio» so‘zidan olingan bo‘lib eshitaman degan ma‘noni anglatadi. Ushbu formatdagi ma‘lumotlardan o‘quv jarayonida foydalanish ancha ilgari, ya‘ni audio yozuvlar paydo bo‘lgan vaqtdan boshlanib ulgurgan. Audio ma‘lumotlardan foydalanish ayniqsa tillarni o‘rganishda shu bilan birgalikda adabiyotni (she‘riyatni) o‘qitishda juda qulay va yuqori samara texnologiyalardan xisoblanadi desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Internet tarmog‘i rivojlanish bilan video va audio maerialardan o‘quv jarayonlarida foydalanishning qulay imkoniyatlari vujudga keldi. Internet tarmog‘ida video va audio materiallarini saqlash uchun maxsus serverlar mavjud. Masalan, Youtube – bu video almashish uchun veb-sayt, bu saytda tashrif buyuruvchilar videoni yuklash va jo‘natish, tomosha qilishlari mumkin. Youtube saytida turli mavzularda yetarli darajadagi video ma‘lumotlar to‘plangan. Mazkur saytda ma‘lumotlar avi formatlarda saqlanadi.

Ilg‘or pedagogik texnologiya muayyan muddatga mo‘ljallangan ta‘lim oluvchi shaxsga qaratilayotgan faollastiruvchi metodlar va zamonaviy ta‘lim vositalaridan foydalangan holda o‘quv maqsadiga erishishni kafolatlaydigan ta‘lim berish jarayonidir. Ta‘lim texnologiyasi o‘qitish va o‘rgatish jarayoni tizim sifatiga qarashni anglatadi shuning uchun avvalo tizim tushunchasini tushunib olish zarur. Tizim tartiblangan, o‘zaro uzviy bog‘langan va birgalikda umumiy funksiyani bajaruvchi elementlar to‘plamidir.

Tasavvufning adabiyot, xususan, she‘riyat bilan, she‘riyatning tasavvuf bilan yaqinlashuvi tasodifiy hodisa bo‘lmagan. Chunki, xuddi adabiyot singari

tasavvuf ham inson axloqi, ko'ngli, ruhi va tafakkuri bilan mashg'ul bo'lishni qo'llab-quvvatlagan.

Albatta, Abdulla Oripovni mutasavvuf ijodkorlarga yaqinlashtirishga urinish yoki uning she'riyatidan so'fiyona ma'no va tuyg'ularni axtarish to'g'ri bo'lmaydi. Lekin uning she'riyatini tasavvufdan butunlay ajratib o'rganish ham mumkin emas. Zero, boshqa shoir va yozuvchilarning tajribalarini hisobga olmaganda ham Abdulla Oripovning Navoiy an'alariga chuqur bog'langanligining o'ziyiq shoir she'riyatining qaysidir bir jihatlardan tasavvufga yaqinligini yoritishga asos beradi.

Buni adabiyotshunos olim Ulug'bek Hamdam shunday ifodalaydi:

«80-yillar she'riyatida ham deyarli shu hol hukm surgan. Buning ustiga mamlakatda ro'y bergan liberal kayfiyat tufayli she'rlarda yalong'onchlik, badiiyatsiz pand-nasixat, quruq chaqiriqlar, yozg'irishlar kuchaygan. Bir so'z bilan aytganda, she'riyatni publitsistika deyarli mahv etayozgan ayni chog'da, ta'kidlab aytish joizki, bu o'n yillik ijtimoiy-siyosiy jihatdan turli burilishlarga ko'tarilib turishlarga boy bo'lgandek, adabiyotda ham xilma-xil ruh-kayfiyat hukm surdi. Xususan, tasavvuf ohanglarining kirib kelishi va umuman, bir yonda otashin chaqiriqlarga to'la she'riyat, ikkinchi yonda esa dunyoning o'tkinchi hoyu-havasidan go'yoki qo'lini yuvib qo'ltig'iga urgan hamda irfoniy ma'rifatga intilgan she'riyat paydo bo'ldi»¹

Albatta, Navoiy, Bobur yoki Mashrabning tasavvufga qarashi bilan Abdulla Oripovning tasavvufga munosabati bir-biridan farqlanadi. Shunga qaramasdan, Abdulla Oripov ijodiyotida hayotning murakkab muammolari, xususan, inson qalbi va ruhiy olamida pinhon yotgan ilohiy his-tuyg'ularni aks ettirishda tasavvufiy she'riyat tajribalariga tayanish mayllari ham mavjud ekanligini e'tirof qilish zarur bo'ladi. Biroq sho'ro zamonida buning tamomila teskarisi bo'lgan edi. Shuning uchun shoir keyinroq bosilgan adabiy suhbatlaridan birida, «Vaqtida meni so'fizmda ayblaganlarning o'zi bugun so'fiylik qilib yurishibdi...» - degan edi. Holbuki, Abdulla Oripovni so'fiylikning zohiriy tomonlari qiziqmagan, uni

¹ O'zbek adabiyoti va san'ati gazetasi 2010-yil 4-soni 35-bet

asosiy mohiyat o'ziga rom etgan.

Bu narsa shoirning quyidagi fikrlaridan ham oson payqaladi: «Mashrab, Nasimiylarni «Men-xudoman» deganlari uchun osishgan, terilarini shilishgan. Ular albatta Iloh emasdilar. Xo'sh, u holda ular bu gapni nega aytdilar? Nega bu gapni aynan tushunib, sohib zabonlarni qatl qilganlar? Xo'sh, Mashrabning o'zi bilmasmidi o'zining Olloh emasligini? Aksincha, Mashrab: Olloh mening qalbimda, degan chuqur falsafani aytgan. Katta tasavvuf bu. Vahdat ul-vujud, vahdat ul-vohid degan katta dunyoqarashdan kelib chiqqan gaplar bu».¹

Ana shu «katta dunyoqarashdan kelib chiqqan» «katta tasavvuf»ning ruhi va mag'zini to'g'ri anglay olganligi uchun ham Abdulla Oripov tasavvufiy adabiyotga bepisand qaramagan edi. Ammo bu xususda ham sho'ro zamonida ochiq bahs yuritib bo'lmadi, albatta. Chunki u yoki bu shoirni so'fiylik dunyosiga yaqinlashtirish uning ijodini qoralash, kamsitish, ya'ni zamonaviylik talablaridan yiroqlashtirish bilan qariyb barobar bo'lardi. Mustaqillik mafkurasi esa, har bir hodisani o'z nomi bilan aytish va talqin qilishga yo'l ochdi. Shuning uchun tasavvuf va tasavvuf adabiyoti vakillari adabiy merosi bilan Abdulla Oripov she'riyati munosabati maxsus tekshirilmagan bo'lsa-da, bu xususda bazi olim va ijodkorlar o'z fikr-mulohazalarini ilgari surishgan. Masalan, Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi To'lepbergen Qaipberganovning e'tirofi bo'yicha, Abdulla Oripov «o'z ijodi bilan Ahmad Yassaviy asos solgan falsafiy she'riyatimizga qayta jon ato etgandir».

Yuqoridagi A.Oripov ijodiga berilgan baholardan bilishimiz mumkinki, A.Oripov she'riyati insonni ham ezgulikka, ham mardlikka, ham jasoratga, ham vatanni sevishga, uning rivoji uchun bor kuch g'ayratini sarflashga va ayniqsa milliy ruhiyatimizni bugungi zamon shukuhi bilan ko'rishga undaydi. Shunday buyuk merosni o'quvchilar ongiga singdirish ta'lim jarayonining asosiy maqsadlaridan biridir. Bu maqsadga erishish uchun barcha innovatsion texnologiyalardan, jumladan audio va video materiallardan foydalanish dolzarb ahamiyatga egadir. Audio va video materiallar ijodkorning o'zi tomonidan aytilgan

¹ O'zbek adabiyoti va san'ati gazetasi 2010-yil 4-soni 39-bet.

she'rlar bo'lishi mumkin, yoki uning she'rlari boshqa insonlar tomonidan aytilgan bo'lishi mumkin, shuningdek, ijodkorning she'rlari klip tarzida olingan bo'lishi mumkin. Yuqorida sanab o'tilgan barcha audio va video materiallarning ta'sir kuchi albatta yuqori bo'ladi. Chunki bunday materiallar orqali o'quvchi ham eshitib ham ko'rib, ham ma'lumotlarni qabul qiladi va bunday jarayonda berilgan ma'lumot inson xotirasida kuchli saqlanadi va tasavvur doira, tahlil qilish qobiliyati yuksaladi. Piravard natijada o'quvchi har tomonlama barkamol inson bo'lib yetishishi tabiiydir. Audio va video materiallarni tayyorlashda shu narsaga alohida e'tibor qaratish mumkinki, bu narsani sotsiologik so'rovlar orqali aniqlash mumkin. Bu narsa shundan iboratki, audio va video materilalarni tayyorlash jarayonida o'quvchilarning kimning ovozi (qaysidir aktyor, yoki san'atkor bo'lishi mumkin) ularga yoqimli ekanligini aniqlab olish joizdir. Bu orqali yaratilgan audio va video materiallar o'quvchiga yanada ta'sirliroq bo'lishiga olib keladi.



2.2. Rauf Parfi she'rlari tahlilida innovatsion yondashuv

So'z – Rauf Parfi eng ko'p murojat qilgan so'zlardan biri. Bu albatta badiiy so'z – adabiyot, xossatan she'riyat ma'nosida. Mumtoz she'riyatimizda so'z ba'zan mana shunday ma'noda ishlatilgan. So'fi Ollayorning quyidagi bayti ham so'zga emas, balki she'rga berilgan tarif:

Agar so'z jona paydo qilmasa soz,
Ani so'z demagil, ey majlisafruz.

Rauf Parfi ijodida ham so'z mana shunday keng ma'noda qo'llaniladi. U «she'riyat» nomli verlebrida: «So'zlar kerak bosh harflarda yaralgan, bosh harflardan yaralgan so'zlar»¹ - deydi. Bu bilan shoir adabiyotning bosh vazifasiga urg'u beradi. Bosh harflardan yaralgan so'zlar, bu - ERK, INSON, IYMON, VATAN, MILLAT, HAQIQAT... va, aynan, shu tushunchalar yo'lidagi kurash – «Bosh harflar»dir. Rauf Parfi nazdida adabiyot mana shunday katta harflardan yaralgan tushunchalar yolidagi kurashlarga yarashi kerak. Agar shunday bo'lmasa, bunday «ovoz» kerak emas, bunday «kelbat» ham:

Shunday bo'lmasa agar,
Nega kerak bu kelbat, bu ovoz?!
Shunchaki daraxtday o'smoqmi,
Shunchaki daryoday oqmoqmi
darbadar?!.

Rauf Parfi ijodga mana shunday mas'uliyat bilan yondashadi. Uning uchun adabiyot ko'ngilxushlik emas, shuningdek, ijodkor ham shunchaki darbadar - bemaqsad chopadigan «daryo» emas...

Rauf Parfiga berilgan yuqoridagi ta'riflardan shuni anglash mumkinki, ijodkorning ijod namunalari o'quvchini har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalaydi. Insonni irodali, sabrli, g'ururli va vatanparvar bo'lishlikka undaydi.

¹ O'zbek adabiyoti va san'ati gazetasi 2010-yil 4-soni 24-bet

Rauf Parfi e'tirof etgan «bosh harflar» insoniyat uchun qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini bugun zamonning o'zi isbotlab turibdi. Shuning uchun ham ijodkorning she'rlarini o'qitish jarayonlarida uning ma'no-mazmunini o'quvchilarga tushinarli tilda yetkazish dolzarb ahamiyatga ega. Bu holat umumta'lim maktablari tizimida faoliyat olib borayotgan ona-tili va adabiyoti fani o'qituvchilarining oldiga katta mas'uliyatni yuklaydi. O'quvchiga shoir she'rlarini shunchaki yod oldirib, yoki ifodali o'qitib qo'yishi mumkin. Lekin bu bilan aniq maqsadga, ya'ni, she'rining yuragiga kirib borib bo'lmaydi. Bunga erishish uchun o'qituvchidan yuksak bilim, keng dunyoqarash talab etiladi. Chunki shoir she'rlarini avvalo o'qituvchi chuqur anglashi, qolaversa, o'quvchilar ongiga singdira olish yo'llarini ham bilishi lozim. Bunda o'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalana olishi qaysi texnologiyani qanday o'quv jarayonida qo'llashni bilishi darkor.

O'quv jarayoniga innovatsion yondashuv degani bu – pedagogik amal va usullar ketma-ketligi bo'lib, yaxlit didaktik tizimni tashkil etadi. O'quv jarayoniga joriy etilishi bilan kafolatli o'quv maqsadiga erishiladi. O'quvchi shaxsining to'liq rivojlanishiga imkon yaratadi. Innovatsion texnologiyani amalga oshirishda qo'llanadigan barcha amallar va usullardan ko'zlangan natijaga erishish yo'li ushbu texnologiyaning algoritmi sifatida qaraladi.

Demak, innovatsion yondashuv didaktik masalalar yechimiga yo'naltirilgan yoki oldindan loyihalashtirilgan ta'limning reja asosida izchil amalga tadbiiq etilgan ketma-ketligi o'zaro bog'liq pedagogik harakatlardir.

Umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishda innovatsion texnologiyalar ta'lim samaradorligini ta'minlaydi. Mazkur bitiruv malakaviy ishda ushbu texnologiyaning asosiy vazifa va belgilari - **tashhisli maqsadlilik, natijaviylik, tejamkorlik, algoritmlilik, loyihalanuvchanlik, boshqaruvchanlik va vizuallik** xususiyatlari shoir she'riyatini tahlil qilish jarayonida qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish maqsad qilingan.

Bunda Rauf Parfi she'rlarini o'qitish jarayonida ko'zlangan aniq natijaga erishish uchun uni boshqa she'rlardan farqlash, o'quvchini tahlil qilishga undash, o'z fikrini mustaqil ifoda etish uchun innovatsion texnologiya uchta asosiy:

❖ *tavsiflovchi*

❖ *izohlovchi*

❖ *loyihalovchi*

omillar yordamga keladi. Tavsiflovchi vazifa o'quv jarayonini amaliy jihati bo'lib, uning uchun zarur bo'lgan vositalar turlicha bo'lishidan qat'iy nazar bir xil tavsif berilaveradi.

Izohlovchi vazifa o'qitishning turli komponentlari (misol uchun, turli metodlar) samarasini aniqlashtirish va uning eng maqbul uyg'unlashuvini belgilash imkonini beradi.

Loyihaviy o'qitish texnologiyasi o'quv jarayonini barcha darajalarda amalga oshiriladigan ishlarni o'zida jamlaydi.

Ko'rinadiki, innovatsion texnologiyalar adabiyot o'qitishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

BMIda aynan shu maqsadni amalga oshirish nazarda tutilgan. BMIning natijalari umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishda samaradorlikka olib keladi. Ta'lim jarayonida Rauf Parfi she'rlarini tahlil qilish jarayonida o'quvchi uni shaxs sifatida tanib, o'rganib boradi, ijodkordan o'rnak oladi, natijada o'quvchini tarbiyalash imkonini yuzaga keladi, unda mukammal inson qanday bo'lishi kerakligi haqida tasavvur hosil bo'ladi.

Quyida biz Rauf Parfining bir nechta she'rlarini tahlil qilish va shu orqali uning mazmuni-mohiyatini o'quvchilar ongiga singdirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llaymiz. Shoir she'rlarini darsda tanqidiy fikrlashning turi bo'lmish **FSMU** usulidan foydalangan holda o'quvchilar uchun ahamiyatli bo'lgan qiziq muammoni o'rtaga tashlab, bahs-munozara vaziyatini yaratish va tanqidiy mulohazalarga keng o'rin berish, estetik tahlil qildirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Zero, estetik tahlilga tortilmagan badiiy asar kitobxon uchun test savollariga o'xshash noma'lumlikdir.¹

Mavzu: *Ona til*

Na joziba, na ajib rangu,
Va tiriklik maftuning mangu,
Zar ber, mezbon, mehmoning man-ku,
Shodon damim, g'amim, ona til.

Go'dak ekan, bo'lgandim hayron,
Ba'zan buzib so'zlagan zamon,
Shuncha fikr qilarmi nihon,
Shodon damim, g'amim, ona til.

Qulog'imga allalar aytding,
Shirin-shirin yallalar aytding,
Bari yodda san nalar aytding,
Shodon damim, g'amim, ona til.

Navoiyni o'zing himoya
Eta, sochding dur benihoya,
Olami lol, ey saxiy doya,
Shodon damim, g'amim, ona til.

Shaharlarni qirg'in quritgan,
Qaro tuproq, ming afsus, yutgan,
Asrlardan lekin but o'tgan,
Shodon damim, g'amim, ona til.

Jang-jadalda zahrim, hamdamim,
Zimistonda eng porloq shamim,
Sen borsanki, yo'q mening g'amim,
Shodon damim, g'amim, ona til.

Rauf Parfining ushbu she'rini guruhlarda FSMU texnologiyasini qo'llagan holda o'tkazilsa, mavzuni asl mohiyatini ochib berishda yuqori natijaga erishish mumkin. Chunki bu –

¹ Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosha. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent.: Kamlak. 2016.-yil.91-bet

F- fikringizni bayon eting


S - fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating

M – ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol keltiring

U- fikringizni umumlashtiring.

Texnologiya o'quvchini izlanishga, boshqa qo'shimcha adabiyotlardan foydalanishga, o'z olgan bilimlarini bir fikr doirasidan o'kazishga undagan holda mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Ushbu texnologiyani guruhlarga bo'lingan holatda o'tkazish, guruhga bo'linganda ham shunchaki bo'lib qo'masdan o'quvchilarning joylashish shakli ham o'quv vaqtida kata ahamiyatga ega xisoblanadi. Misol uchun quyidagi rasimga nazar tashlaydigan bo'lsak, ushbu rasmdagi holatda guruhlarga bo'linib joylashtirilsa dars vaqtida muloqot jarayoni oson va qiziqarli kichadi.



Rauf Parfining ushbu she'ri qanday dolzarb ahamiyatga ega va unda ko'tarilgan mavzu nima? Hayotiy dalillar misolida tushuntiring. Shu savol barcha guruhga yetkaziladi.

O'tkazish usuli.

Ushbu usul to'rtta bosqichda o'tkaziladi:

I bosqich. «*Fikringizni bayon qiling*» deb nomlanadi. Bunda har bir guruhga tarqatilayotgan oddiy qog‘ozga Rauf Parfining yuqoridagi she‘rini mazmunini tushuntirib berish topshiriladi.

Masalan: Birinchi guruh: she‘rning birinchi to‘rtligini,

Ikkinchi guruh: ikkinchi to‘rtligini.

Uchinchi guruh: uchinchi to‘rtligini .

To‘rtinchi guruh: to‘rtinchi to‘rtligini.

Beshinchi guruh: beshinchi to‘rtligini.

Oltinchi guruh: oltinchi to‘rtligini mazmunini tushinib olishga harakat qiladilar va o‘qituvchi tomonidan tarqatilgan qog‘ozlarga she‘rning mazmuniy bayonini yozadilar

II bosqich. Ikkinchi bosqichda o‘quvchilar o‘z bildirgan fikrlariga sabab keltiradilar:

III bosqich. Har bir o‘quvchi o‘z qog‘ozini ikkinchi bosqich sharti bo‘yicha to‘ldirib bo‘lgach, o‘z fikrlariga ko‘rsatilgan sabablarni isbotlovchi ma‘lumotlarni qog‘ozga tushiradilar.

IV bosqichda har bir o‘quvchi tayyorlagan ma‘lumotlar umumlashtiriladi va barcha o‘quvchilar bilan o‘qituvchi yordamida umumlashtirilgan fikr-mulohazalar bo‘yicha xulosaviy yakun yasaladi.

V bosqich o‘yindan tashqari bosqich bo‘lib, unda texnologiyani qo‘llash jarayonida ishtirok eta olmagan o‘quvchilar uchun keying darsga tayyorlanib kelishlari uchun darsda bajarilgan ishlar asosida uyga vazifalar beriladi.

Rauf Parfi qalamiga mansub quyidagi she‘rni qanday innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali uning mazmun-mohiyatini o‘quvchilar ongiga singdirish va she‘rdagi tuyg‘ularni ularning odatlariga aylantirishga yuqori darajada erishish mumkin?

Bir qushcha derazam yonida,

O‘ltirar parishon va g‘arib.

Yig‘laydi, ko‘zlari yonadi,

Ko‘zlari ikkita marvarid.

Bir ajib navoga o'xshaydi,
Shoirlga o'xshaydi u hassos.
Miskin soz chalmoqqa u shaydir,
Dardiga bordir-ku bir asos.

Men unga qarayman ohista,
Men qushcha holiga yig'layman.
Va lekin bilmayman, ne istar,
Bilmayman, hech qachon bilmayman.

Endi to'rg'ay bilan ushbu qushchani qiyoslaydigan bo'lsak, birinchi farq shoir bilan ular orasidagi masofada ko'rinadi: to'rg'ay osmonda, qushcha shoir derazasi yonida. Ikkinchi farq ularning kayfiyati bilan bog'liq: to'rg'ayning kuylari sho'x, nafis, «yuraklari hush», shuningdek, u ko'k yuzida parvoz etib yurgan erkin va zavqli qush. qushcha-chi, «O'ltirar parishon va g'arib, Yig'laydi, ko'zlari yonadi...». Uning qalbida bir dard bor. Lirik qahramon qushchani dardini bilgisi keladi, lekin bilolmaydi, faqat unga hamdard bo'la oladi, unga qo'shib yig'laydi. O'sha 60-yillarda yozilgan she'rlaridan birida Rauf Parfi qushchani yana tilga oladi: «Bir qushcha sayraydi mening ruhimda, Men sening ismingni bilmayman, qushcham». Endi qushcha deraza oldida emas, shoirning ruhida sayrayapti. Bu - Rauf Parfi ruhiyatidagi shoirlik edi. Endi Rauf Parfi nomli Shaxs bilan shoirlik bir vujudda yashayapti. Lekin shunda ham shoir «qushcha»ni tanimaydi: Men sening ismingni bilmayman, qushcham! Chunki insoniy aql bilan uni tanishning, anglashning iloji yo'q, u his qilinadi, holos. Agar shoir ijodidagi qush obrazini tadrijiy o'rgansangiz, ushbu poetik obraz dinamikasini kuzatasiz. Bu - Rauf Parfi ruhiyati zamirida tomir otgan shoirlikning o'sishi. Shoirning 1994-yilda yozilgan bir she'rida: «Achchiq chirqiradi noma'lum bir qush», deyiladi. Demak, shungacha ham bu qush «noma'lum»ligicha qolmoqda. Farqi, birinchidan, «qushcha» endi «qush»ga aylandi. Ikkinchidan, endi u «yig'lamaydi», balki «chirqiraydi», chirqiraganda ham «achchiq chirqiraydi». Shoir umrining oxirlarida yozilgan bir she'rida esa:

Yo‘q, men qushman, chala so‘yilgan qushman,
Aytilmagan bir So‘zim bor bo‘g‘zimda,-

deydi. E’tibor berayapsizmi, endi shoirning o‘zi qushga aylanib bo‘ldi, bo‘lganda ham «chala so‘yilgan qush»ga. U chala bo‘g‘izlangan. Endi «achchiq chirqirash»dan ham mahrum u. Lekin shu holatda ham bo‘g‘zida aytadigan So‘zi bor. Ana shu So‘z Rauf Parfini umrining oxirigacha yondirib kuylatdi. Bu - haq So‘z edi. Shoirning ixtiyori o‘zida emas edi, uni mana shu So‘z boshqarardi. Shuning uchun ham Rauf Parfi: «So‘zlamayman deyman so‘zlayman. So‘zlarimning ortidan ergashaman qaro go‘rgacha», deydi. Zero, chinakam ijodkorni mana shu so‘z boshqaradi.

Mana yuqorida ustoz shoir ijodining eng yorqin qirralari bilan tanishish jarayonida shuni angladikki, adib hayot haqiqatini, uning bor bo‘y bastini o‘zining sherlarida gavdalantirgan. Shundan anglashimiz mumkinki, ustoz shoirning ijod namunalarini yosh avlod qalbiga singdirish dolzarb ahamiyatga ega xisoblanadi. Shoirning bunday buyuk ijodini o‘quvchilar ongiga ta’sirchan vositalar orqali singdirishda innovatsion yondashuv muhim ahamiyatga egadir.

Rauf Parfi yuqoridagi she’r orqali nima demoqchi ekanligini «**Bahs-munozara**» metodi orqali juda a’lo darajada anglab olish mumkin.


Bu metod biror mavzu bo‘yicha ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro bahs, fikr almashinuvi tarzida o‘tkaziladigan o‘qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo‘llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta’lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta’lim beruvchining o‘zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta’lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta’lim oluvchilar orasida paydo bo‘ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

«*Bahs-munozara*» metodini o‘tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- Barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- «o'ng qo'l» qoidasi (qo'lini ko'tarib, ruxsat olgandan so'ng so'zlash)ga rioya qilish;
- Fikr-g'oyalarni tinglash madaniyati;
- Bildirilgan fikr-g'oyalarning takrorlanmasligi;
- Bir-birlariga o'zaro hurmat.

Quyida «Bahs-munozara» metodini o'tkazish tuzilmasi berilgan.



«Bahs-munozara» metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammo bo'yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta'lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya'ni turli g'oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta'lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga o'z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g'oyalarni guruhlariga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
5. Tahlil natijasida qo'yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.

«Bahs-munozara» metodining afzalliklari:

- Ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;
- Ta'lim oluvchilar o'z fikrining to'g'riligini isbotlashga harakat qilishiga imkoniyat yaratiladi;
- Ta'lim oluvchilarda tinglash va tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Bu metodni qo'llashdan avval o'qituvchi o'quvchilarga "Bahs-munozara" metodi qoidalarini tushuntirib o'tadi. "Bahs-munozara" uchun muammo tariqasida savol tashlanadi.

2.3 Zebo Mirzo she'riyatini o'rganishda muommali texnologiyalarning ahamiyati

Tabiiyki, inson tafakkur sari intiladi. Intilish, tafakkur tushunchasi shunchaki bilish, ilmni bir yerga to'plash degani emas, balki o'rganish, olingan bilimlarni mushohada etish, uni aql bilan idrok qilish ham demakdir. Tafakkur, qolaversa, aql insonni ma'naviy komillikka yetaklaydi.

Bugungi o'zbek she'riyati tilini umumxalq so'zlashuv uslubiga uyg'unlashtirishga intilish kuchaydi. Og'zaki va yozma nutqning qorishiq tabiatiga monand jarayonni ijodning psixoanaletik tamoyillarini kengaytirish, so'zning murakkab tabiatini soddalashtirish, ijtimoiy voqelik ziddiyatlarini to'la qamrab olish, badiiy tadqiqot obektiga turli yondashishga intilishning ortishi bilan izohlash mumkin. She'riyatda lirik qahraman botinida inson ruhiyatining aks etishi asosiy o'ringa ko'tariladi. Bugungi kunda ijodkorlar juda ko'pchilikni tashkil etadi. Ushbu ijodkorlar ichida Zebo Mirzo o'z uslubi va ovozi bilan ajralib turadi. Shoira ijodi o'zidagi sof tuyg'ulari bilan she'rxon qalbini larzaga soladi. Aslida she'riyatning asosiy vazifasi estetik zavq ulashish va inson tuyg'ularini tarbiyalashdir. Zebo Mirzo she'riyatidagi bosh lirik qahramon – o'z qalb isyonini umidga sarf etgan, vasl ishtiyoqida sabr va bardosh chegaralarida yashayotgan ayoldir. Ayol ruhiyatini tadqiq etishda Zebo Mirzo she'riyati arzirli tadqiqot

manbaya bo'la oladi. Buning uchun she'riyatdagi timsollar tilini ochish, ramzlar va obrazlarni tushuna olish lozim. Eng muhimi esa hayratlana olish tuyg'usidir.

Zebo Mirzoning ijodida aks etgan bu insoniy tuyg'ularni o'quvchilar ongiga singdirishda va shu orqali ularning dunyoqarashlarida sharqona etikani qaror toptirishda muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash o'rinli hisoblanadi.

Muammoli ta'lim va uning o'ziga xosliklari shundan iboratki, o'quvchilar bu texnologiya orqali muammoli vaziyatlarni yaratish, chuqur bilish faoliyati, murakkab masalalarni mustaqil izlash va hal etish, o'sha ko'tarilgan muammoning ichida yashab, shu jarayonni tassavvur eta olish kabi yuksak xususiyatlarni shakllantirishga xissa qo'shadi.

Muammoli vaziyatni o'rganish mavzuga oid materialni tahlil qilishda o'quvchi shu vaziyatga o'zi kirishi, uni tushunishi, baholay olishi, muammoni hal etishdagi o'zining roli va bunda o'zini qanday tutishi kerakligini belgilashi kerak. Zero birinchi Prezidentimiz shunday fikrlarni bildirgan edilar: «Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar»¹

Muommoli o'qitishning maqsadi aynan – o'qituvchi tomonidan taklif etilgan, maxsus bilim orttirishga xizmat qiladigan masala – muommoni o'quvchilar o'z aql-idroklari, erkin va mustaqil fikrlashlari bilan yechishdan iborat.

Muommoli o'qitish metodikasiga ko'ra, o'qituvchi o'quvchilarni masalani yechishga yo'naltiradi. Ta'limda evristik yondoshish o'qituvchi va o'quvchini oldindan noma'lum bo'lgan natijaga erishishlarini ko'zlagani uchun muommoli o'qitish imkoniyatlarini kengaytirishga imkon beradi.

Ushbu pedagogik g'oya ta'lim oldiga:

- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan huquqiy demokratik davlat qurilishi jarayonlariga moslash;

¹ I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" Toshkent-2008 347-bet.

- kadrlar tayyorlash milliy tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

- ta'lim oluvchilarni ma'naviy–axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va uslublarini ishlab shiqish hamda joriy etishni hal etish vazifalarini ko'ndalang qilib qo'ydi. Zebo Mirzo ijodini muammoli ta'lim texnologiyalari asosida o'qitishda interfaol grafik organayzerlar:

«Baliq skeleti», «BBB», «Konsteptual jadval», «Venn diagrammasi», «T-jadval», «Insert», «Klaster», «Nima uchun?», «Qanday?» va boshqalar. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q. Tabiiyki, inson tafakkur sari intiladi. Intilish, tafakkur tushunchasi shunchaki bilish, ilmni bir yerga to'plash degani emas, balki o'rganish, olingan bilimlarni mushohada etish, uni aql bilan idrok qilish ham demakdir. Interfaol ta'lim metodlarini ko'pincha turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo'llanmoqda. Bu metodlarni qo'llash mashg'ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta'lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

Shunday qilib, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchilarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri yechimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchining ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchitalabalarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi. Quyida Zebo Mirzoning ijodini bir necha muammoli texnologiyalar asosida o'rganib chiqamiz:

«Baliq skeleti» chizmasi

«Baliq skeleti» chizmasi


Zebo Mirzo she'rlarida aks etgan inson hayotida duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni alohida sanab o'tish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida yoki kichik guruhlarda baliq skeletining yuqori «suyagida» muammolar ifodalanadi, pastda esa ushbu kichik muammolar mavjudligini tasdiqlovchi dalillar yoziladi.

Kichik guruhlariga birlashadilar, taqqoslaydilar, o'zlarining chizmalarini to'ldiradilar.

Ishning natijalari dars so'ngida muhokama qilinadi

«Baliq skeleti» sxemasi - muammolarni aniqlash va tasdiqlash



34

Yuqorida keltirib o'tilgan «baliq skeleti» chizmasi dars vaqtida yozuv stoliga yoki dars jarayoni guruhlariga bo'lingan holda olib borilishi rejalashtirilgan bo'lsa, bir nechta qog'ozga chiziladi va Zebo Mirzoning she'rlarida aks etgan inson hayotida duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni alohida sanab o'tish topshirig'i beriladi. Shundan so'ng sxemaning pastki qismiga o'quvchilar tomonidan sanab o'tilgan muammolarga dalillar keltiriladi.

Ushbu texnologiyaning ahamiyatli jihati shundan iboratki, o‘quvchi Zebo Mirzoning yuragini uqishga intiladi, ijodkorning hayot yo‘lini bilishga qiziqadi hamda o‘zini o‘rganilayotgan she’rni ichiga kirishga, undagi har bir satrda o‘zini ko‘rishga intiladi. Natijada o‘quvchining tasavvur doirasi, tahliliy qobiliyati va eng asosiysi hayot sabog‘i shakllanadi.

Demak, dars jarayonida muammoli texnologiyalarni samarali tashkil etish orqali o‘quv faoliyatida ko‘zlangan natijaga erishilar ekan. Shu munosabat bilan yuqoridagi tasnif bo‘yicha hozirgi ayrim interfaol ta’lim metodlarining turli shakllardagi o‘quv mashg‘ulotlari texnologiyalari bilan qo‘llash dars samaradorligini yanada oshiradi.

Zebo Mirzo she’rlarini tahlil qilishda o‘qituvchi muammoli ta’lim texnologiyasining **“Tadqiqot”** metodidan foydalansa, ko‘zlangan maqsadiga erishadi. Chunki bu metod orqali ijodkorning ijod jarayonidagi qalb tug‘yonlarini o‘quvchilar ham his qila olishlariga ko‘mak beradi va shu bilan birgalikda bu metod tasavvur hamda his qilishga undash orqali ularda yashiringan, ayrim o‘quvchilarning o‘zlari ham bilmaydigan yashirin ijodkorlik xislatlarini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. “Tadqiqot” metodida topshiriqlarning shakli har xil, masalan: sinfda va uyda tez bajariladigan topshiriqlar, dars jarayonini taqazo etadigan ishlar, ma’lum, lekin cheklangan muddatga mo‘ljallangan uy vazifalaridan iborat bo‘lishi mumkin.

“Tadqiqot” metodining bosqichlari:

1. Faktlar va hodisalarni kuzatish hamda o‘rganish.
2. Tadqiqotga doir tushunarsiz hodisalarni oydinlashtirish.
3. Gipotezani olg‘a surish.
4. Tadqiqotning rejasini tuzish.
5. Rejani amalga oshirish.
6. Yechimni tuzish.
7. Yechimni tekshirish .
8. Amaliy xulosalar.

Zebo Mirzo she'rlari tahlilida ushbu metodni qo'llash orqali shoira ijodining ham shakl, ham mazmun tomonini tahlil qilishga erishsa bo'ladi.

Adabiyot darslarida mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

O'qituvchi o'quvchilarni guruhlariga ajratib, ularni mos o'rinlarga joylashtirgandan so'ng, mashg'ulotni o'tkazish tartib-qoidalari va talablarini tushuntiradi, ya'ni u mashg'ulotning bosqichli bo'lishini va har bir bosqich o'quvchilardan diqqat-e'tibor talab qilishini mashg'ulot davomida ular yakka guruh va jamoa bo'lib ishlashlarini aytadi. Tartib-qoidalar tushuntirilgach, mashg'ulot boshlanadi:

Avval, o'quvchilarga Zebo Mirzo bir she'ri yozdiriladi. Masalan, quyidagi she'rini olaylik:

Umrinni o'tkinchi saboga berdim,
Eng so'nggi chaqamni gadoga berdim,
Bu telba ruhimni Xudoga berdim...
Sabo olib bordi, gadoga berdi
Gado yig'ib bordi, Xudoga berdi.
Xudo meni senga — xatoga berdi,
Sen meni kimlarga berding, Azizim?

Bu she'rda o'y va ko'ngil odamining o'z umri davomida bosib o'tadigan uzun yo'lidagi asosiy bekatlar aks etgan deyish mumkin. She'riy satrlarda butun bir umrni o'tkinchi saboga, so'nggi chaqasini gadoga, ruhini Xudoga berib o'ziga hech narsa olib qolmagan kishi holati va kayfiyati tamomila o'ziga xos yo'sinda aks etgan. Oqibat ham amalga yarasha, lekin shoira - umid kishisi. Shu bois qandaydir mo'jiza yuz berishini kutadi. Lekin mo'jiza doim ham bo'lavermas ekan, shekilli, uni Xudo xatoga berdi. She'rning butun o'ziga xosligi, jozibasi ayni so'nggi satrda aks etadi. O'zi-ku uning chekiga xato tushgandi, lekin xatoning ham buni kimgadir berib yuborishi mumkinligi lirik qahramonni hayratga soladi: "Sen


meni kimlarga berding, Azizim?” Ruhiga begona bo‘lgan xatonida “azizim” deyishday, xatodanda ayrilishni istamaslikday chigal va tushunarsiz tuyg‘ular faqat bugungi kun kishisiga xosdir. Istiqlolgacha bo‘lgan adabiyotda masala bunday qo‘yilmas edi.

Yuqorida berilgan ta’rifdan ham boshqa ta’riflar berilishi mumkin. Chunki bunday hayot haqida mukammal yozilgan ijod namunasini boshqa jihatlarini ham boshqacha duyoqarash asosida qarash mumkin. Bu natijaga erishish uchun esa o‘qituvchi o‘quvchilarni munozaraga, o‘ylashga fikrlashga undashi lozim. Bunga aynan «tadqiqot» metodi orqali erishish mumkin.

«Tadqiqot» metodining dastlabki bosqichida o‘quvchilar guruhlariga bo‘linadi ijodkorning yuqoridagi she’ri bilan tanishtiriladi (uyga vazifa sifatida oldindan bersa ham bo‘ladi), o‘quvchilar tomonidan bayon etiladi. Har bir guruh a’zolari tomonidan ushbu sherni A-3 formatdagi qog‘ozga yozishadi, so‘ng o‘qituvchi barcha guruhga she’rda qanday mazmun yashiringanini, unda qanday inoniy yug‘ular aks etganligini va eng asosiysi ushbu she’rdagi yashiringan mazmun o‘quvchlarning o‘zlarining hayotlarida qanday as qotishi (buni guruhdagi har bir o‘quchi o‘z tilidan tadqiq etib beradi) mumkinligini yozishlari va tahlil qilib berishlari lozim bo‘ladi. Berilgan aniq vaqt tugagach, tayyorlangan ish guruh vakili tomonidan o‘qiladi.

Zebo Mirzoning yuqoridagi she’rini yana bir muammoli texnologiya orqali ham o‘quv jarayonida o‘rganish mumkin. Bu «**Qanday**» texnologiyasidir.

«Qanday?» ierarxik diogrammasi – muammoni yechishning usul va vositalari



«Qanday» diagrammasi muammo to'g'risida umumiy tasavvurlarni olish imkonini beruvchi, mantiqiy savollar zanjiridir. Bu diogramma o'quvchida tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirib beradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda innovatsion fikrlashga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Bundan tashqari ayni paytda kadrlar orasida mexanizm asosida faoliyat olib borish borasida ayrim kamchiliklar ko'ga tashlanmoqda. O'quv jarayonlarida muammoli texnologiyalarning tizimli olib borilishi shu muammolarni bartaraf etish imkonini beradi.

Onamga

Oq sochlari oppoq tun uning,
umri halol ishqqa bayroqdir.
Ox, yuzlari dunyoyi dunning
Go 'zalidan chiroyliroqdir.

(Bo‘lolmadim hassasichalik),
Otam dardin ko‘targan mohim.
Ushhoqqina onam ko‘ngliga
Bir hovuch nur bergil ilohim.

O ‘zi potrab chiqqan chashmaday
Yoningizdan oqdimu ketdim.
O‘zgalarga daryo tutdimu,
Ox, onam-a sizni unutdim.

Qaldirg‘ochlar mendan yaxshiroq,
Baxt to ‘kadi hur quchog‘iga.
Men ham uning tirnog‘imanu,
Arzimayman, lek tirnog‘iga.

Ismaloqlar bo‘yini tarab,
Bahor shoshsa yurgan joyiga,
Rabbim meni gul qilib yarat,
Hech bo‘lmasa uning poyiga!...

Zebo Mirzo qalamiga mansub ushbu she’rga e’tabor qaratsak, unda qanchalik dard yashiringanligini guvohi bo‘lamiz va biz ham bir o‘tmishga nazar tashlaymizda albatta miskin o‘yga cho‘mamiz. Chunki tirikligimizning asosi bo‘lmish mushtipar onajonlarimiz uchun umrimiz davomida faqat yaxshilik qilsak ham kam, lekin, afsuski faqat yaxshilik qila olmaymiz, faqat ko‘nglini ola olmaymiz. Afsus!

Shuning uchun ham shoiraning she’rida tug‘yonli dard balqib turganligini guvohi bo‘lamiz. Ha bu she’r kelajak avlod, ya’ni o‘quvchi uchun ibrat bo‘lishi shubhasiz.

Ushbu she'rni o'quvchilarga tushuntirish uchun muammoli texnologiyalardan foydalanish mumkin. Masalan, «*Bir so'z bilan ifodalang*» nomli interaktiv o'yin o'quvchini aniq fikrlashga, fikrlarni qisqa ifodalashga o'rgatadi. Muammoli darslarda ham shunday o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday o'yinlar o'quvchini zerikishdan xalos etadi va mavzudan chekinib, chalg'ishga yordam beradi. Bunday faollashtiruvchi usullarni darsning o'rtasida foydalanish orqali ko'proq samaraga erishish mumkin. Ayniqsa keltirib o'tilgan yuqoridagi she'r o'qituvchi tomonidan yoki biror o'quvchi o'qiganida sinfda ozgina o'ychanlik holati yuzaga keladi. «*Bir so'z bilan ifodalang*» nomli interaktiv o'yini orqali esa o'quvchini har xil o'y hayollardan uzoqlashtirib, qisqa fikrlashga, shu qisqa fikrlash orqali esa o'zida mavjud kamchiliklarni bilib olishga yordam beradi. Ushbu interaktiv o'yinni o'tkazish uchun o'quvchilar ikki guruhga bo'linadilar. O'qituvchi har bir guruhga bir xil, yani,

«(Bo'lolmadim hassasichalik)»,

«O'zgalarga daryo tutdimu,

Ox, onam-a sizni unutdim.»

«Men ham uning tirnog'imanu,

Arzimayman, lek tirnog'iga.» deb keltirilgan dard, armon sabablarini bir va ikkita so'zlar orqali izohlab bering. Kim ko'p so'z yozsa va asosli izohlab bersa shu guruh g'olib xisoblanadi. Shu interaktiv o'yindan so'ng «**Debat**» metodini ham qo'llash mumkin. Bu metod muammoli ta'lim texnologiyasining yana bir metodlaridan biri bo'lib, uning afzalligi guruhlarda ishlayotgan o'quvchilarni o'z fikrlarini himoya qilishga va boshqa guruh a'zolarining bildirgan noto'g'ri fikrlarini inkor qilib, uni muhokama qilishga undaydi.

O'qituvchi yuqoridagi «*Bir so'z bilan ifodalang*» nomli interaktiv o'yinidan keyin har bir guruhning javoblarini o'qishlarini so'raydi va shuning barobarida birinchi guruh yozgan javoblarni ikkinchi guruhga, ikkinchi guruh yozgan javoblarni birinchi guruhga beradi. Bunda birinchi guruh ikkinchi guruhning javoblarini ikkinchi guruh birinchi guruhning javoblarini tanqid qilishi lozim bo'ladi. Har bir guruh o'z yozgan javoblarini himoya qiladi.

III BOB. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI

3.1. Tajriba-sinov natijalari

Pedagoglarimiz doimo ma'naviy boy bo'lishga intilib kelganlar. Chunki ma'naviyat shunday bir ummonki, har bir pedagog undan kuch-qudrat olib, ilhomlanib, tafakkur imkoniyatlarini ijodiy boyitishi mumkin. Vatanni sevish, millatidan g'ururlanish, ma'naviy merosimizni chuqur o'rganish va o'rgatishda pedagoglarimiz "Mening tajriba va malakalarim, o'z kasbimga bo'lgan munosabatim qay darajada?", "Hozirgi ta'lim talablariga javob bera oladigan mukammal bilim va salohiyatga egamanmi?" kabi savollar atrofida mushohada yuritishi zarur. Borliqni, o'ta murakkab hamda tez o'zgaruvchan hayotni yaxlit bir tizim sifatida o'rganish, ro'y berayotgan voqea va hodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunish, o'tmish, hozirgi davr va kelajakning bir-biriga ta'sirini anglashda nostandart vaziyatlarda ham eng maqbul va original qarorlar qabul eta oladigan yosh avlodni tarbiyalash mas'uliyati har bir pedagogning zimmasidadir. Bunday ta'lim-tarbiya yo'sinini yo'lga qo'yishda, albatta, pedagogik mahorat va kasbiy madaniyatga ega bo'lish zarur.

Maktab ta'limida namunali pedagogik mahoratga ega o'qituvchilarimizning darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'limiy o'yinlar va AKTdan foydalanib tashkil qilishlari tahsinga loyiq. Istiqloq davri she'riyatini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish mavzusi yuzasidan tajriba-sinov materiallarining tavsifi pedagogika amaliyotda orttirilgan bilim, ko'nikmaga uzviy bog'liq.

Men pedagogik amaliyot davomida TTYSI qoshidagi akademik litseyida o'z kasbini mohir ustalari, ijodkor o'qituvchilarning darslarini kuzatdim, ularning nazorati ostida dars o'tdim. Jumladan, oliy toifali o'qituvchi, Xalq ta'limi a'lochisi Qurbonova Sevinch, Abduraimov Shohruh va Yoqubova Sevara kabi ustozlarning bevosita rahbarligidagi o'n bir hafta men uchun katta tajriba maktabi bo'ldi.

Pedagogik amaliyot davomida men bitiruv malakaviy ishim bo'yicha bir qator tajriba-sinov ishlarini amalga oshirdim. Unda o'quvchilarni ijodiy fikrlashga

o'rgatishga oid bir qator vazifalar yuzasidan II, III kurs o'quvchilarga adabiyot fanidan dars o'tdim.

Dars jarayonida multimediya vositalari ishlatildi. Jumladan, mavzuga oid video lavhalar, audio materiallardan unumli foydalanildi.

1. Darslarda muammoli ta'lim metodlaridan, muammoli vaziyatlardan foydalandim.
2. Adabiyot darslarini boshqa fanlar bilan bog'lab o'tishga harakat qildim. Adabiyot darslarini esa musiqa, rasm darslari bilan integratsiyalashga harakat qildim. Masalan, "Abdulla Oripov hayoti va ijodi. She'rlari tahlili" mavzusida o'tgan ochiq darsimda shoirning she'ri o'quvchilar tomonidan ijro etildi.
3. Adabiyot darslarida "*Eshitib tahlil qil*" metodi o'quvchilarga juda manzur bo'ldi. Men bu metodni ham yozma, ham audio shakllarda o'tkazdim. "7f- 16" guruhda ushbu metod qatorlar bo'ylab o'tkazildi. Har bir qatorning birinchi partasiga shoir she'rlaridan namunalar qo'yildi va bu namunalar har bir o'quvchilar tomonidan o'qib berildi va xulosalandi. Dars jarayonida har bir o'quvchining fikriga alohida e'tibor qaratishga harakat qildim. U juda sodda fikr bo'lsa ham uni eshitishga, rag'batlantirishga harakat qildim.
4. Amaliyot davomida o'zim dars o'tayotgan guruhlarda Muhammad Yusufning tavallud kuni munosabati bilan ijodiy insholar tanlovini o'tkazdim.

Tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun akademik litsey adabiyot darsliklari materiallarini o'tish yuzasidan dars ishlanmalari (tavsiyalar) tayyorlandi.

Mavzu	Abdulla Oripov hayoti va ijodi. She'riyati
--------------	---

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot vaqti - 2 soat	O'quvchilar soni – 30-40ta
Mashg'ulot shakli	Informatsion bahs-munozarali dars
Ma'ruza rejasi:	1.A.Oripov hayoti va ijodi haqida ma'lumot. 2. Abdulla Oripov she'riyatining g'oyaviy-

	<p>badiiy xususiyatlari.</p> <p>3. Abdulla Oripovning “Munojat”ini tinglab.</p> <p>4. Abdulla Oripov she’riyatida audio va video materiallaridan foydalanish.</p>
<p>Ma’ruza mashg’ulotining ta’limiy maqsadi:</p>	<p>Ushbu mavzu orqali o‘quvchilarga A.Oripov she’rlarini tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat.</p>
<p>Ma’ruza mashg’ulotining tarbiyaviy maqsadi:</p>	<p>A.Oripov she’rlari tahlili orqali vatanparvarlik, erkparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish</p>
<p>Ma’ruza mashg’ulotining rivojlantiruvchi maqsadi:</p>	<p>A.Oripov she’riyatining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini o‘rganish</p>
<p>Mavzuni o‘zlashtirish uchun zaruriy bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati:</p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Oripov A. Yillar armoni. - T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986. 2. Oripov A. Haj daftari.-T.: 1992. 3. Meliev S. Lirik fojilik. // O‘zbek tili va adabiyoti, 1991, 3-son. 4. Sharafiddinov O. Hayot bilan hamnafas, - T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. 5. Qo‘shjonov M. Onajonim she’riyat. - T.: O‘qituvchi, 1984. 6. Karimov N. va b. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. - T.: O‘qituvchi. 1999. 7. Mirzaev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. - T.: O‘qituvchi, 2004.
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.A.Oripov hayoti va ijodi haqida ma’lumot berish. 2. Abdulla Oripov she’riyatining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari: badiiy mukammallik va falsafiy teranlik xususida ma’lumot berish. 3. Abdulla Oripov she’riyatida audio va video materiallaridan foydalanish. 	<p>O‘quv faoliyati natijalari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.A.Oripov hayoti va ijodi haqida ma’lumot oladilar. 2. Abdulla Oripov she’riyatining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari: badiiy mukammallik va falsafiy teranlik haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. 3. Abdulla Oripov she’riyatida audio va video materiallaridan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘ldim.
<p>Ta’lim berish usullari</p>	<p>Ma’ruza, “Qanday?” texnikasi, “FSMU” uslubi, “Insert” “Klaster”</p>
<p>Ta’lim berish shakllari</p>	<p>Jamoa bo‘lib ishlash</p>
<p>Ta’lim berish vositalari</p>	<p>O‘quv qo‘llanma, kompyuter, proektor ,</p>

	tarqatma material, slaydlar.
Ta'lim berish sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, o'qitish usullarini qo'llash mumkin bo'lgan o'quv xona.
Monitoring va baholash	Kuzatish, og'zaki nazorat, savol-javobli so'rov, o'quv topshiriq.

1.2. “ Abdulla Oripov hayoti va ijodi.She'riyati” mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

<i>Ish jarayonlari vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>O'quvchi</i>
1 bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1. Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va o'quv faoliyat natijalarini tushuntiradi.	Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladi
	1.2. Adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiradi.	Yozib oladi.
	1.3. Mashg'ulotni o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi.	Yozib oladi.
2 bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa)	2.1. Mavzu rejasining birinchi, ikkinchi punkti rejasini bo'yicha ma'ruza qiladi. Ma'ruza bo'yicha vizual materiallar taqdim qilinadi Ma'ruza bo'yicha «Qanday?» usulidan foydalangan holda o'quvchilarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: “Shoir she'riyatining mavzu ko'lami haqida qanday fikr bildirasiz?” (6-ilova).	Yozadi, savolga javob beradi.
	2.2. Mavzu rejasining uchinchi, to'rtinchi punkti bo'yicha ma'ruza qiladi. Ma'ruza bo'yicha «Qanday?» usulidan foydalangan holda talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: “A.Oripovning qaysi asarlarini bilasiz?”	Yozadi, savolga javob beradi.
	2.2. Shoir ijodini yoritish «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi. “FSMU” usulidan foydalanilib guruhlariga topshiriqlar beradi. Guruhlarda ishlashga yordam beradi Qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh topshiriqlarini vatman – qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi Fikrlarini tinglab, umumlashtiradi.	Savollarga javob beradilar, erkin bahs-munozara yuritadilar. Guruhlarda ishlaydilar.
3 bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1 Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qilinadi.	Tinglaydilar
	3.2. O'quvchilarning baholash mezonlari e'lon qilinadi	Yozib oladi
	3.3. O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar beradi.	Javob yozadi

	3.4 Navbatdagi mashg‘ulotda ko‘riladigan mavzuni e‘lon qiladi va “Insert” usulida jadvalga mustaqil ta‘limga tayyorgarlik ko‘rishlarini so‘raydi.	“Insert” usulida jadvalni to‘ldiradi.
--	---	---------------------------------------

Mavzu: Abdulla Oripov hayoti va ijodi. She‘riyati

Dars rejasi:

1. A. Oripov hayoti va ijodi haqida ma‘lumot.
2. Abdulla Oripov she‘riyatining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari
3. Abdulla Oripovning “Munajat”ini tinglab.
4. Abdulla Oripov she‘riyatida audio va video materiallaridan foydalanish.

Ma‘ruza mashg‘ulotining ta‘limiy maqsadi: Ushbu mavzu orqali o‘quvchilarga A. Oripov she‘rlari tahlili haqida bilim berish.

Ma‘ruza mashg‘ulotining tarbiyaviy maqsadi: A. Oripov asarlari tahlili orqali yurtparvarlik, erkparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish.

Ma‘ruza mashg‘ulotining rivojlantiruvchi maqsadi: A. Oripov she‘riyatida badiiy mukammallik va poetik mahorat masalalari.

O‘quv faoliyati natijalari:

1. A. Oripov hayoti va ijodi haqida ma‘lumot oladilar.
2. Abdulla Oripov she‘riyatining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari: badiiy mukammallik va falsafiy teranlik haqida tushunchaga ega bo‘ladilar.
3. Abdulla Oripov she‘riyatida audio va video materiallaridan foydalanish ko‘mikmasini anglab yetadilar.
4. A. Oripov she‘rlarining poetik va falsafiy xususiyatlari haqida bilib oladilar.

Adabiyotlar:

1. Oripov A. Yillar armoni. - T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1986.
2. Oripov A. Haj daftari. - T.: 1992.
3. Meliev S. Lirik fojeliq. // O‘zbek tili va adabiyoti, 1991, 3-son.
4. SHarafiddinov O. Hayot bilan hamnafas, - T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1983.
5. Qo‘shjonov M. Onajonim she‘riyat. - T.: O‘qituvchi, 1984.

6. Karimov N. va b. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. - T.: O‘qituvchi. 1999.
7. Mirzaev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. - T.: O‘qituvchi, 2004 .

Har bir ma’ruza va seminar mashg‘ulotii uchun 1 balldan 5 ballgacha qo‘yiladi. Reyting bo‘yicha natijalar bahosi:


5 ball – “a’lo”



4 ball – “yaxshi”

3-2 ball – “qoniqarli”

1 ball – “qoniqarsiz”


VIZUAL MATERIALLAR





«Qanday» organayzerini to'ldiring

Muhim muammoning echimini topishga yordam beradi va “Qanday” savoli orqali muammo hal qilinadi.



FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda xamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Jadvalni to'ldiring

1-guruh

Savol	A.Oripov she'riyatining XX asr o'zbek adabiyotida tutgan o'rnini belgilang.
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashti-ring	

2-guruh

Savol	A.Oripovning istiqloq yillaridagi ijodi haqida fikr bildiring.
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

O'quvchilarni faollashtirish uchun savollar:


- 1.A.Oripov she'rlarida umuminsoniy g'oyalar qaysi o'rinlarda ko'rinadi?
2. Shoir she'rlarida lirik menlik nimalarda namoyon bo'ladi?
3. "Haj daftari" kitobidagi ko'zlangan asosiy maqsad nima?
- 4."Munajatni tinglab" she'riyatidadan namunalar tahlil qiling.
5. Muhabbat lirikasi aks etgan she'rlarini ayting.

«MUNOJOT»NI TINGLAB...

*Qani, ayt, maqsading nimadir sening,
Nega tilkalaysan bag'rimni, ohang?
Nechun kerak bo`ldi senga ko`z yoshim,
Nechun kerak, rubob, senga shuncha g`am?
Eshilib, to`lg`anib ingranadi kuy,
Qaylardan tug`ilmish bu oh-u faryod.
Kim u yig`layotgan? Navoiymikin
Va yo may kuychisi Xayyommikin, dod!
Yetar, ey cholg`uvchi, bas qil sozingni,
Bas, yetar, ko`ksinga urmagil xanjar.
Nahotki dunyoda shuncha g`am bordir!
Agar shu munojot rost bo`lsa agar,
Agar aldamasa shu sovuq simlar,
Gar shul eshitganim bo`lmasa ro`yo,
Sen beshik emassan, dorsan, tabiat,
Sen ona emassan, jallodsan, dunyo!..
Eshilib, to`lg`anib ingranadi kuy,
Asrlar g`amini so`ykr munojot.
Kuyi shunday bo`lsa, g`amning o`ziga
Qanday chiday olgan ekan odamzod*

“KLAUSTER” METODI

O`quvchilarga ixtiyoriy muammo xususida erkin, ochiq o`ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g`oyalar o`rtasidagi aloqalar o`rtasidagi aloqalar to`g`risida firklash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Ushbu metodni mustaqillik davri adabiyot ijodkorlari asarlari namunalariidan keltirilgan ma'lumotlarni klaster usulida yozib chiqadilar.



DTS asosida tuzilgan dastur va darslikka qo'yilgan zamonaviy talablar tarbiyaviyligi bilan, yosh avlodni har tomonlama yetuk inson etib, milliy g'oya va ona-Vatanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratilgandir

Darhaqiqat, adabiyot o'qituvchilari DTS qo'ygan talablar asosida ish yuritishsa, dars davomida yangi metodlardan, pedagogik texnologiya va texnik vositalardan unumli foydalanib mashg'ulot o'tsalar, mavzuning o'zlashtirilish ko'rsatkichi va darsning samaradorligigina emas, o'quvchilarning faolligi ham sezilarli ortadi. Dastur va darsliklarni kuzatar ekanmiz, taqlidiy so'zlarni o'rganishga doir mavzularning bir qadar puxta emasligini ham kuzatdik.

XULOSA

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning yaratilishi sohada ulkan o’zgarishlar, mazmun jihatidan yangilanishlar amalga oshirilishiga turtki berdi. Mazkur me’yoriy hujjatlarda ta’lim-tarbiya tizimida amalga oshirilishi lozim bo’lgan tub islohotlar – ta’lim mazmuni, ta’lim-tarbiya jarayonini yangilash, yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish kabi dolzarb vazifalar belgilab berilgan. Bu esa ta’lim tizimining sifat darajasini yangilash, ta’lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish tizimini ham takomillashtirishni ham taqozo qiladi.

Hozirgi davr ta’lim jarayoniga “innovatsion yondashuv” atamasi kirib keldi. Shu yo’sindagi tadqiqotlarning aksariyatida innovatsion faoliyat yangilik va ilmiy pedagogik texnologiyalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan bo’lsa, ayrim olimlarning izlanishlarida innovatsion jarayonlarni boshqarish, ta’limdagi o’zgarishlarni tashkil etish, innovatsion faoliyat uchun zarur shart-sharoitlar yaratish masalalari tahlil qilingan. Ta’lim tizimida qo’llanilayotgan innovatsion texnologiyalarning muhim jihati shundaki, u o’quvchilarni faollashtiradi, ularga fikrni mustaqil ifodalash, tanqidiy fikr yuritish, tahlil qilish, xulosa chiqarishni o’rgatadi.

Adabiyot darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o’quvchilarda mantiqiy fikrlash ko’nikmalarini tarkib toptiradi, guruhlarda ishlashga o’rgatadi, ko’pchilik oldida o’z fikrini bayon qilish, o’z nuqtayi nazarini asoslash malakalarini hosil qiladi. Ta’lim-tarbiya jarayonini to’g’ri tashkil etish, mavjud imkoniyatlarni safarbar etish o’qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Darsda uch maqsad ko’zda tutiladi: *ta’limiy*, *tarbiyaviy* va *rivojlantirish*. Mana shu uch maqsadni amalga oshirishda innovatsion texnologiyalar yaqindan yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalarda foydalanishda quyidagilarga e’tiborini qaratishi lozim: Innovatsion texnologiyalarning mohiyati; ta’lim maqsadlarini amalga oshirishdagi ro’li; fan bo’yicha innovatsion texnologiyalarni qo’llash tamoyillari;

ta'limiy va ishchanlik o'yinlari; muammoli va rivojlantiruvchi tomonlari; o'quvchi-larning mustaqil faoliyatlarini tashkil qilaish yo'llari; ko'rsatmali o'qitish usullari.

Adabiyot darslari innovatsion texnologiya asosida tashkil qilinganda, asosan, o'quvchilarda hamkorlikda ishlash ko'nikmasi shakllanadi, umumiy vazifalar yechimini topishda bir-birlariga ko'mak beradilar, o'quvchilarda ijodiy va mustaqil fikrlash malakalari tarkib topadi, o'quvchilar o'z ishlari natijasiga, o'qishga, ta'lim olishga shaxsan mas'ullikni his qiladilar. Innovatsion texnologiyalardan: "Aqliy hujum", "Klaster yoki tarmoqlanish", "Kichik guruhlarda ishlash yoki hamkorlik", "Musobaqa", "Idrok xaritasi", "FSMU", "Sinkveyn", "Seminar-trening", "Ajurli arra", "Mantiq qani?", "Baliq skeleti", "Qaysi biri ortiqcha?" kabi texnologiyalari sanab o'tdik.

Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti bir qator o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan badiiy-estetik hodisadir. Istiqlol davri o'zbek adabiyoti ko'p asrlik milliy adabiyotning mantiqiy davomidir.

Istiqlol davri o'zbek adabiyoti tamomila yangilanayotgan estetik tafakkurning mahsuli o'laroq tu'ildi. Bu davr she'riyati shakliy izlanishlarga boyligi bilan xarakterlanadi. Hissiyot qatlamlarini tadqiq etish, odam ruhiyatidagi boy va rangin iqlimlarni poetik kashf etishga urinish kuchaydi.

O'zbekiston Respublika xalq ta'limi vazirligi, Talim markazi tomonidan ishlab chiqilgan 5-9-sinf uchun adabiyot dasturini tuzishda quyidagi jihatlar inobatga olingan: 5-sinf adabiyot darsligida mustaqillik davri adabiyoti uchun 3 soat. Abdulla Oripovning hayoti va ijodi «O'zbekiston» qasidasidasi uchun 2 soat vaqt alratilgan bo'lib, unda yurt o'tmishi g'oyat ta'sirli va millat tarixi bilan uyg'un holda tasvirlangan. Erkin Vohidovning «Nido» dostonini uchun 3 soat vaqt ajratilgan 6-sinf adabiyot darsligida Erkin Vohidovning «O'zbekim» qasidasi uchun 2 soat vaqt ajratilgan. 9-sinf adabiyot darsligida Abdulla Oripovning «Sarob», «Bahor», «Genetika», «Bahor kunlarida», «Kuz manzaralari» she'rlari va "Sohibqiron" dramasi uchun 5 soat vaqt ajratilgan. Mustaqillik davri adabiyoti mavzuyiga 3 soat vaqt ajratilgan. Ushbu umum ta'lim adabiyot darsliklari Davlat

ta'lim standartlari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazrligining O'rta maxsus kasb-hunar ta'limini rivojlantirish instituti tomonidan "Ta'lim to'g'risida", "Standartlashtirish to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga hamda Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va amalda joriy etish to'g'risida" gi 1998-yil 5-yanvardagi 5-son, "O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1998-yil 13-maydagi 204-son qarorlariga muvofiq ta'lim turlari o'rtasida uzviylik va uzliksizlikni ta'minlash maqsadida xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta ta'lim maxsus ta'lim vazirligi hamda Fanlar akademiyasi mutaxassislari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan.

Darslikda o'rganishga taqdim etilgan she'rlar faqat qissadan hissa chiqarish tarzida o'qitilishi emas, balki, har bir o'quvchi uni qalbidan tafakkuridan mustaqil o'tkazish, o'zicha zavq olishi va xulosa chiqarishi lozimligi nazarda tutilgan.

Ushbu darslik taqvim rejasida ajratilgan darslar o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yadi:

- o'quvchilarni shoir haqida ma'lumot bilan tanishtirish;
- ruboiylarda inson ruh erkilgi, "muhabbat – butun borlig'ini harakatga keltiruvchi kuch" ekanligi talqinini o'quvchi ruhiyatga singdirish;
- shoir tasviridagi o'ziga xosliklar va Jamol Kamol tarjimonlik mahoratiga alohida to'xtalish va o'quvchilarni bu bilan tanishtirish;

Yo'qoridagi darslar orqali o'quvchi Abdulla Oripov haqida quyidagicha bilimlarga ega bo'lishi kerak:

- shoir hayoti va ijodi haqida ma'lumot;
- Abdulla Oripov ushbu she'rlari orqali nima demoqchi ekanligini bilish va davrlarini taqqoslash;

Darslikda she'riyatini o'rganishda muommali texnologiyalarning ahamiyatini keltirishdan ko'zlangan asosiy maqsad quyidagicha:

- o'quvchini shoira haqida ma'lumot bilan tanishtirish;

— she'riyatda bolalar hayoti muammolariga jamiyat a'zolari munosabatlarini qarama-qarshi qo'yish orqali yozuvchi ko'zlagan maqsadini tushuntirish, tahlil qildirish;

— asarda o'smirlar dunyosi, ular tabiatini tushunmaslik yomon oqibatlarga olib kelishi mumkinligi, ularga xos ruhiy kechinmalarning mahorat bilan ko'rsatilganligini ochib berish;

Xulosa qilib aytganda, butun e'tibor bilimlarining mustahkam va ongli o'zlashtirilishiga, o'quvchilarni kitobga oshno etish, badiiy asar o'qishga muhabbat uyg'otish ularda milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini o'stirish, Vatan va xalqqa cheksiz mehr hislarini shakllantirish ko'zda tutildi.

Tayanch soʻzlarning oʻzbekcha-inglizcha lugʻati

Adabiy til – literary language

Ahamiyatli – important, considerable

Amaliy – practical, applied

Amaliy ish – practical work

Anʻanaviy – traditional

Anʻanaviylik – traditional nature

Aqliy faoliyat – mental activities

Asosiy – main, chief, principal, fundamental

Axborot – report, information

Dars – lesson, class, occupation

Darslik – textbook, manual, primer

Darsxona (sinf, auditoriya) – lecture-hall, lecture-room, classroom

Dastur – reversing rod

Didaktika – didactics

Dolzarb – peak, culmination

Eshituvchi – listener

Fan – science, subject

Izohli lugʻat – dictionary

Faol – active

Faoliyat – activity

Faollik – activity

Fikr – idea, thought, opinion

Filologiya – philology

Foydalanish – use, using, useful

Ijobiy – positive, favourable

Ijodkorlik – creation

Ilmiy – scientific

Iqtidorli – powerful, mighty

Izoh bermoq – explain

Jalb etmoq – attract smb’s attention
Joriy etmoq – put into practice, introduce
Jurnal – journal, periodical
Kelajak avlod – future the next generation
Kitob – book
Kompyuter – computer
Ko‘rgazma – exhibition
Ko‘rsatmali – graphic, obvious
Malakali – experienced, skilled
Maqsadga muvofiq – expedient
Mavzu – subject, theme
Mashg‘ulot – occupation, studies
Metod – method, methodology
Metodik – systematic, methodologic
Metodika – method, methodology
Metodist – methodologist
Muallim (o‘qituvchi) – teacher
Mustaqil – self-dependent
Og‘zaki – oral, verbal
Pedagogik – pedagogical, educational
Psixologik – psychology
Qiziqarli – interesting, interestingly
Rivojlantirish – fostering, developing
Samarali – fruitful, productive, effective
Ilmiy tadqiqot – research
Tahlil qilmoq – analyze
Taqdim qilmoq – present smb. (with), offer
Tarbiya – education, upbringing, care
Tarbiyalamoq – bring up, educate
Tatbiq etmoq – apply, employ, use

Ta'lim – education, teaching
Texnologiya – technology
Umumta'lim – public education
Usul – method, way
Uzluksiz – uninterrupted, continuous
Uzviy – organic
Vosita – instrument, means, ways, methods
Xulosa – conclusion, summary
Xususiyat – peculiarity, uniqueness
Zamonaviy – contemporary, modern, current
Zarur – necessary, urgency
O'qimoq – study
O'rganmoq – learn, study, master
O'rgatish – instructing, teaching
O'yin – play, game
O'zlashtirmoq – master, acquire, assimilate (a subject, profession)

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. - Toshkent: O‘zbekiston, 2009.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
7. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni. //Xalq so‘zi gazetasi, 2017- yil 8-fevral.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi farmoni. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil, 8-fevral

Darslik va o‘quv qo‘llanmalari:

11. Rafiyev A., G‘ulomova N. Adabiyot. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Toshkent, Sharq, 2006.
12. Azizxodjaeva N.N.. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - Toshkent: Ma’naviyat, 2005
13. Ahmedov S va b. Adabiyot. 6-sinf uchun. - Toshkent: Ma’naviyat, 2013
14. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy- nazariy asoslari. - Toshkent: Fan, 2007.

15.Fayzullayeva D.M., G‘aniyeva M.A., Ne‘matov I. Nazariy va amaliy o‘quv mashg‘ulotlarda o‘qitish texnologiyalari to‘plami. Met.qo‘ll. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limida innovatsion ta‘lim texnologiyalari seriyasidan – Toshkent: TDIU, 2013.

16.Interfaol usullar. // Xalq ta‘limi jurnali. - Toshkent: № 3. 2008-yil.

17.Ibrohimov A. Boburninig so‘z qo‘llash mahorati. //O‘zbek tili va adabiyoti. 2011. № 1.

18.Najmiddin Komilov. Ma‘nolar olamiga safar. – Toshkent: Tamaddun, 2012.

19.Niyozmetova R.H. Uzluksiz ta‘lim tizimida adabiyotni o‘rganish. - Toshkent: Fan, 2007.

20.Oripov A. Yillar armoni. - T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1986

21.Oripov A. Haj daftari.-T.: 1992

22.Meliev S. Lirik fojelik. // O‘zbek tili va adabiyoti, 1991, 3-son

23.Boboyev T. Zamondoshimiz – adabiyotimiz qahramoni.-Toshkent, “Fan”, 1980. 47 b.

24.Mirvaliyev S, Shokirova R. O‘zbek adiblari.-Toshkent, “Fan”, 2007. B.57-59.

25.Salayev F. Qurbonniyozova G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligi. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.

26.Ta‘lim jarayonini faollashtirish va jadallashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalar. Xalq ta‘limi markazi. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: 2014.

27.Ta‘lim va texnologiya. Ilmiy-uslubiy maqolalar to‘plami. - Toshkent: - 2007.

28.Til va adabiyot ta‘limi jurnali.

29.To‘xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. Adabiyot Majmua. Akademik litseylarning uchunchi bosqich o‘quvchilari uchun. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.

30. Normatov U. Nasrimiz ufqlari.-T. Adabiyot va san'at.1978
31. Umumta'lim maktablari adabiyot darsliklari.
32. Yusupova Sh, G'oziyeva O. Adabiyot o'qitishda interfaol usullar va kompyuter dasturi. - Toshkent: Bayoz, 2013.
33. Yo'ldoshev Q. va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi.- Toshkent.:1994.
34. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Pedagogik texnologiyalar.- Toshkent.: O'qituvchi . 2009.
35. Abdullayev H. Erkin Vohidov – zamonamiz klassigi.-Toshkent.TDPU nashriyoti.2006, B..
36. To'ychiev U. O'zbek adabiyotida badiiylik.-Toshkent. Yangi asr avlodi, 2011
37. G'afurov I. She'riyat-izlanish demak. -Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984.-224 B.
38. To'xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. Adabiyot (Majmua. Akademik litseylarning uchinchi bosqich o'quvchilari uchun). – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.

Internet saytlari:

01. www.ziyonet.uz
02. www.google.uz
03. www.pedagog.uz
04. www.istedod.uz
05. www.bimm.uz
06. www.ziyonet.uz.
07. www.edu.uz
08. <http://www.ziyouz.uz>
09. <http://uzedu.uz>
10. [http:// www.kitob.uz](http://www.kitob.uz).